



YANGI O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 67 (1666), 2026-yil 7-aprel, seshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



SOLIQ MA'MURCHILIGI RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TAKOMILLASHTIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 6-aprel kuni soliq ma'murchiligini takomillashtirish va soliq organlari faoliyatini isloh qilishga doir taqdimot bilan tanishdi.

So'nggi ikki yilda soliq bazasi kengaygani hisobiga budgetga tushular hajmi iqtisodiyot sur'atlariga nisbatan tezroq o'smoqda. Xalqaro valyuta jamg'armasi ham mazkur natijalarga soliq ma'murchiligini kuchaytirish va yashirin iqtisodiyotni qisqartirish orqali erishilayotganini e'tirof etmoqda. Shu bilan birga, tizimni izchil isloh qilish orqali 2030-yilga borib, soliq tushularini 491,5 trillion so'mga yetkazish, iqtisodiyotda kuzatilmaydigan ulushni esa 28 foizdan 19,6 foizgacha qisqartirish maqsad qilingan.

Yig'ilishda soliq tushularini oshirishdagi eng katta xazira yashirin iqtisodiyotni qisqartirish ekanini ta'kidlandi.

Prezidentimiz raqamli tahlil va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalanib, "aqlli" nazorat tizimini joriy etish orqali budgetga qo'shimcha 30 trillion so'm tushumini ta'minlash zarurligini ko'rsatib o'tdi. Bu savdo va xizmatlar, sanoat, qurilish, umumiy ovqatlanish hamda boshqa sohalarda P2P-operatsiyalar monitoringi, tovarlarni markirovkalash, raqamli nazoratni kuchaytirish, yuklarni hujjatsiz tashish faoliyatini avtomatik aniqlash va norasmiy bandlekni rasmiylashtirish kabi mexanizmlardan keng foydalanish hisobiga ta'minlanishi mumkin.

Bozorlar va savdo majmualarida nazorat to'liq yo'lga qo'yilmagani, raqamlashtirish ishlari yetarli emasligi oqibatida ushbu yo'nalishdagi imkoniyatlar to'liq ishga solinmayotgani qayd etildi. Bugungi kunda bu yerlarda 72 mingdan ortiq chakana savdo subyekti faoliyat yuritmoqda. Biroq ularning 38 mingdan ortig'i tovar aylanmasini 1 million so'mdan kam ko'rsatgan, 40 mingdan ziyodi esa kuniga atigi 2-3 ta chek bermoqda. Shuningdek, bozorlardagi 12 mingta savdo nuqtasi bo'yicha ijara shartnomalari hisobga qo'yilmagan. Natijada 37 ming tadbirkor oyiga 500 ming so'mdan kam soliq to'lagan.

Shu bois, bozorlar va savdo majmualarini to'liq raqamlashtirish hisobiga qo'shimcha tushum manbalarini ishga solish, nazorat, soliq xizmati va raqamli kuzatuvni o'zaro integratsiya qilish zarurligi ko'rsatib o'tildi.

Yig'ilishda strategik bo'lmagan yirik soliq to'lovchilarga hududlarda xizmat ko'rsatish masalasi haqida ham so'z bordi.

Xususan, 209 mingta QQS to'lovchi soliq organlaridan uzoqda joylashgani sababli xizmat ko'rsatish va nazorat samaradorligi pasaygani qayd etildi. Shu munosabat bilan 500 ta strategik bo'lmagan korxonalar nazoratini viloyat darajasiga, 103 mingdan ziyod qishloq xo'jaligi, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini tuman darajasiga o'tkazish taklif qilindi. Mazkur yondashuv soliq to'lovchilarga joyida xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, muammolarni tezkor hal qilish va nazorat samaradorligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Tadbirkorlar uchun soliq ma'murchiligini soddalashtirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi.

O'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, tadbirkorlarning aksariyati tekshiruvlar, hisobot topshirish va soliq to'lash jarayonlarining murakkabligidan norozi ekanini aytdi. Shu munosabat bilan "avtokameral" nazoratni jazolash vositasidan xatoni barvaqt aniqlab, tuzatishga xizmat qiladigan profilaktika tizimiga aylantirish, korxonalarini xavf darajasiga qarab, "yashil", "sariq" va "qizil" toifalarga ajratib ishlash zarurligi ta'kidlandi.

Shuningdek, 6 turdagi hisobotni inson aralashsiz avtomat shakllantirish va yagona soliq hisobvarag'iga o'tish ishlarning borishi haqida axborot berildi. Bugungi kunda 198 ming holatda hisobot muddati buzilgani, 14,7 ming soliq to'lovchi hisobot bermagani uchun 396,6 milliard so'm jarima qo'llanilgani, soliqni to'lashda hisobvaraqlar soni ortib ketgani bois, 20 mingta xatolikka yo'l qo'yilgani aytdi.

Yangi tizim joriy etilsa, asossiz soliq qarzi, ortiqcha to'lov va penya qo'llash amaliyoti qisqartirilib, tadbirkorlar 8,4 trillion so'm mablag'ni tejashi mumkinligi qayd etildi. Yangi yondashuv natijasida tekshiruvlar soni kamayishi, hisobotlardagi xatolar keskin qisqarishi, murojaatlarni ko'rib chiqish tezlashishi hamda koll-markazlar faoliyati sezilarli yaxshilanishi kutilmoqda.

Taqdimotda soliq organlari faoliyatidagi eng asosiy masala kadrlar salohiyati ekanini ham ko'rsatib o'tildi.

So'nggi yillarda bu yo'nalishdagi ishlar yetarli darajada tashkil etilmagani sababli kadrlar qo'nimsizligi oshgan. Xodimlarning malakasini oshirish darajasi pastligi, moddiy rag'batlantirish tizimi zamon talablariga javob bermasligi, ijtimoiy yo'llab-quvvatlash mexanizmlari yetarli emasligi qayd etildi. Xususan, 2022-yilda 3 mingdan ortiq xodim malaka oshirgan bo'lsa, o'tgan yili bor-yo'g'i 700 nafari qayta o'qitilgan.

Shu munosabat bilan kadrlar malakasini oshirish, uzluksiz ta'limni yo'lga qo'yish, xodimlarni moddiy va ijtimoiy rag'batlantirish bo'yicha yangi takliflar taqdim etildi. Kadrlar salohiyatini mustahkamlash maqsadida Soliq qo'mitasi huzuridagi Soliq akademiyasining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash choralarini belgilab olindi.

Davlatimiz rahbari soliq ma'murchiligida raqamli texnologiyalar, tahlil va sun'iy intellekt asosida mutlaqo yangi ish uslubini joriy etish, tadbirkorlar uchun qulay va adolati soliq muhitini yaratish hamda sohada malakali kadrlar korpusini shakllantirish yuzasidan mutasaddilarga topshiriqlar berdi.

Soliq tizimi faoliyatini "tekshiruvdan — servisa" tamoyili asosida transformatsiya qilish, xizmat ko'rsatish sifatini yanada oshirish va nazoratning zamonaviy, samarali mexanizmlarini yo'lga qo'yish ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

O'ZA

DAVLAT AKTIVLARINI XUSUSIYLASHTIRISH BO'YICHA YANGI VAZIFALAR BELGILANDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirishga doir takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda xususiy sektorni rivojlantirish va investitsiyalar jalb qilish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi. Bugungi kunda iqtisodiyotda davlat ulushi 42 foizni, davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyatini chuqur tahlil qilish, moliyaviy barqarorligini baholash va muammolarni barvaqt ishtirokidagi korxonalar soni esa 1 ming 685 tani tashkil etmoqda. Xususan, o'tgan yili qariyb 30 trillion so'mlik davlat aktivlari xususiylashtirilib, byudjetga 10 trillion so'mdan ortiq tushum ta'minlandi. Yer uchastkalarini sotish hajmi ham izchil oshib, 6 trillion so'mlik natijaga erishildi.

Xususiylashtirishdan manfaatdorlik tizimi joriy etilib, viloyatlarda 2,6 trillion so'm, mahallalarda esa 7 milliard so'm mablag' qoldi. Davlat korxonalarini esa byudjetga 49 trillion so'm dividend to'ladi. Umuman, so'nggi besh yilda xususiylashtirish hisobidan davlat korxonalarini 60 foizga kamaydi.

Tanqidiy ruhda o'tgan yig'ilishda sohada hal etilishi lozim bo'lgan masalalar ham borligi ko'rsatib o'tildi.

Eng avvalo, xususiylashtirish jarayonlarida ish o'rinlarini saqlab qolish, yangi mulkdorlar tomonidan zamonaviy texnologiyalar joriy etilishi va ishlab chiqarish samaradorligi oshirish bo'yicha talablarni kuchaytirish zarurligi ta'kidlandi. O'tgan yili samarasiz ishlayotgan davlat korxonalarining soni 362 taga yetgani bu boradagi ishlarni yanada jadallashtirishni talab qiladi.

Taqdimotda davlat korxonalarini tahlil qilish tizimida zamonaviy raqamli vositalar va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalanilmayotgani qayd etildi. Moliyaviy holati og'irlashgan 451 ta korxonada 2024-yilda 14 trillion so'm, o'tgan

yili esa 362 ta korxonada 4 trillion so'm zarar ko'rgani aytdi. Shu munosabat bilan davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyatini chuqur tahlil qilish, moliyaviy barqarorligini baholash va muammolarni barvaqt aniqlashning yangi mexanizmini joriy etish zarurligi ko'rsatib o'tildi.

Xususiylashtirishda tahlil yondashuv yetarlicha qo'llanilmayotgani qayd etildi. Bundan buyon mazkur jarayon tarmoq yondashuvi asosida tashkil etilib, har bir soha alohida tahlil qilinishi, uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini baholash, raqobat muhiti o'rganilishi hamda takliflar shu asosda ishlab chiqilishi belgilandi.

Hududlarda davlat mulkidan oqilona foydalanish, bo'sh turgan maydonlarni iqtisodiy faoliyatga jalb qilish bo'yicha mavjud imkoniyatlar to'liq ishga solinmayotgani qayd etildi. Shu munosabat bilan davlat ko'chmas mulki obyektlarini bosqichma-bosqich yagona boshqaruv tizimiga o'tkazish, bir xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha maydonni 27 kvadrat metrdan 12-15 kvadrat metrgacha qisqartirish taklif etildi. Bu orqali 4,9 million kvadrat metr maydonni iqtisodiy aylanmaga kiritish, bo'sh binolarni savdo va ijara uchun qayta qurilish, saqlash va kommunal xarajatlarni qisqartirish imkoniyati yaratiladi.

Yig'ilishda tadbirkorlarga ajratilgan, lekin iqtisodiy aylanmaga to'liq kiritilmagan yer uchastkalarini masalasiga ham alohida e'tibor qaratildi. Xususan, 2022-2025-yillarda berilgan 11,4 ming gektar yerning 3,1 ming gektarida iqtisodiy faoliyat to'liq yo'lga qo'yilmagani ta'kidlandi.

Shu bois, yer uchastkalarining haqiqiy holatini onlayn monitoring qilish, ularni tayyor loyihalar asosida auksionga chiqarish va investitsiya kiritish shartini kuchaytirish zarurligi ko'rsatib o'tildi. Buning uchun "E-auksion", "Yerelektron", O'zbekkosmos agentligi, "Shaffof qurilish" va "UzKAD" kabi axborot tizimlarini o'zaro integratsiya qilgan holda samarali foydalanilmayotgan yerlarni aniqlash tizimini joriy etish taklif qilindi.

Ushbu yerlarni iqtisodiy aylanmaga kiritishda joylardagi hokimliklarning rolini oshirish topshirildi. Endilikda tadbirkorlik maqsadlari uchun yer maydonlari ruxsat beruvchi hujjatlar bilan birga tayyor biznes loyihasi sifatida auksionga chiqariladi.

Shuningdek, yirik aktivlar, jumladan, "UzAuto Motors" AJ va uning tarkibidagi korxonalar, "Navoiyazot" AJ, issiqlik elektr stansiyalarini xususiylashtirishga tayyorlash ishlari haqida axborot berildi.

Davlat aktivlarini boshqarish agentligida raqamli texnologiyalar loyiha ofisini tashkil etish taklif bildirildi. Ushbu tizim doirasida xususiylashtirishning barcha jarayonlari onlayn kuzatib boriladi, davlat korxonalarining moliyaviy tahlili va tushumlarini taqsimlash jarayonlariga sun'iy intellekt elementlari joriy qilinadi.

Davlatimiz rahbari iqtisodiyotda davlat ishtirokini yanada qisqartirish, aktivlardan samarali foydalanish va xususiylashtirish jarayonlarini zamonaviy yondashuvlar asosida tezlashtirish bo'yicha mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berdi.

O'ZA

MUDDATLI HARBIIY XIZMATNI O'TAYOTGAN YOSHLARNI QO'LLAB-QUVVATLASH YANADA KENGAYTIRILADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlash va harbiy xizmatchilarni qo'llab-quvvatlash masalalarini yuzasidan yig'ilish o'tkazdi.

Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, ularning zamonaviy bilim va kasb-hunar egallashini hamda bandlekni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha izchil islohotlar olib borilmoqda.

Xususan, joriy yil 13-yanvar kuni o'tkazilgan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida harbiy xizmat nufuzini yanada oshirish hamda yoshlarni jamiyatda munosib o'rin topishiga ko'maklashish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilgan edi.

Bu boradagi islohotlarning mantiqiy davomi sifatida bugun muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan harbiy xizmat kasbga o'rgatish va sifati ta'lim olishlari uchun sharoit yaratish hamda armiyada kitobxonlikni ommalashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan takliflar muhokama qilindi.

Jumladan, 2026-2027-o'quv yilidan boshlab muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan yoshlarga bir qator imtiyoz hamda kafolatlar berilishi nazarda tutilmoqda.

Endilikda muddatli harbiy xizmatchilar uchun harbiy xizmat davrida oliygohlarga o'qishga kirib, masofaviy ta'lim olish imkoniyati yaratilmoqda. Bu jarayonda askarlar uchun ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlikda harbiy qismlarda abituriyentlarni tayyorlash kurslari tashkil etilib, oliygohlarning kirish imtihonlariga tayyorlash tizimi yo'lga qo'yiladi.

Shartnoma asosida o'qishga qabul qilingan askarlarga esa foizsiz imtiyozli kreditlar ajratiladi. Eng muhimi, oliy ta'lim muassasalariga qabul qilingan askarlar harbiy fakultetlar talabalariga tenglashtirilib, o'qishni tamomlagandan so'ng ularga zaxiradagi leytenant harbiy unvoni beriladi.

Shu bilan birga, namunalari xizmat o'tagan, respublika va xalqaro sport musobaqalarida hamda fan olimpiadalarida birinchi o'rinni egallagan askarlarni ta'lim olishlarida o'qishga qabul qilish tartibi belgilanmoqda.

Joriy etilayotgan imtiyozlardan yana biri — askarlar uchun harbiy xizmat davomida "Bitta askar — bitta kasb" tamoyili asosida 3-6 oylik o'quv kurslari tashkil etilib, ularga davlat namunasidagi maxsus sertifikat beriladi.

Muddatli harbiy xizmatdan qaytib, xususiy sektorda faoliyat yuritmoqchi bo'lgan yoshlarning kasb-hunarga o'qish xarajatlarini vaucher asosida Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi tomonidan qoplab beriladi.

Davlat tashkilotlariga ishga kirish istagini bildirgan yoshlarga esa Boshqaruv samaradorligi agentligi tomonidan o'tkaziladigan test sinovlarida 10 foizlik imtiyoz ballari qo'shib beriladi.

Yig'ilishda harbiy xizmatchilarni kitobxonlikka qiziqishini yanada oshirish, bu borada ularni qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlar ham ko'rib chiqildi.

Xususan, joriy yildan boshlab, har yili Qurolli Kuchlarning barcha toifadagi harbiy xizmatchilari o'rtasida to'rt bosqichli "Ma'naviyat qal'oni" respublika kitobxonlik tanlovi o'tkaziladi.

Tanloving birinchi bosqichi harbiy qism va harbiy ta'lim muassasalarida, ikkinchi bosqichi harbiy okrug, birlashma va qo'shimmalarda, uchinchi bosqichi Qurolli Kuchlar tarkibidagi vazirlik va idoralarda o'tkaziladi. Yakuniy respublika bosqichida saralash bosqichlarining g'olibi bo'lgan harbiy xizmatchilar o'zaro bellashadi. Yakuniy bosqichning 4 nafar g'olibi Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondonining bosh sovrini — zamonaviy elektromobil hamda diplom bilan taqdirlanadi. Sovrinli o'rinlarni egallagan harbiy xizmatchilar pul mukofotlari va diplomlar bilan rag'batlantiriladi.

Davlatimiz rahbari takliflarni ma'qullab, tegishli qarorlarni imzoladi. Yangi chora-tadbirlar yurtimiz taraqqiyoti uchun yuqori bilim, malaka va intellektual salohiyatli hamda vatanparvar kadrlar zaxirasini shakllantirishga xizmat qilishi lozimligini ta'kidlandi.

Yig'ilishda, shuningdek, mudofaa vaziri mamlakatimiz harbiy xavfsizligini kuchaytirish, qo'shinlarning jangovar shayligini oshirish yuzasidan belgilangan vazifalar ijrosining borishi to'g'risida axborot berdi.

O'ZA



Xalqaro aloqalar

O'ZBEKISTON NAFAQAT QADIMIY O'TMISHGA EGA YURT, BALKI ISHONCH BILAN KELAJAK SARI INTILAYOTGAN DAVLATDIR

Sharqning ulug'vor minoralar qad ko'targan shahriga yaqinlasharkan, uzoq Shimol o'lklaridan kelgan savdogar katta karvonni hayrat-la tomosha qilib turibdi. Karvonning tualarga yuklangan ipak, ziravorlar, tulla, kumush va boshqa qimmatbaho mollari ko'zni qamashtiradi.

XI asrda Skandinaviyadan ancha yiroqda — Buxoro yoki Samarqandga xos manzara bo'lsa-da, bu aslida ilk o'rta asrlarda Yevropani Markaziy Osiyo bilan bog'lab turgan ulkan xalqaro savdo tarmoqlarining bir ko'rinishi edi.

Vikinglar davri (IX–XI asrlar)dayoq hozirgi Shvetsiya hududidan odamlar Yevrosiyoning daryo tizimlari bo'ylab Sharqqa harakatlanib, Buyuk ipak yo'lining yirik markazlariga, jumladan, Samarqand va Buxoroga intilgan. Shvetsiya hududidan somoniylar sulolasi davrida

ishlab chiqirilgan yuzlab kumush tangalarning topilishi mamlakatimizning O'zbekiston bilan uzoq tarixiy aloqalariga guvohlik berib turuvchi dalildir. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarga ko'ra, Buxoro va Samarqanddan keltirilgan kumush tangalar nafaqat savdo munosabatlarini rivojlantirish, balki o'sha davrdayoq Skandinaviyada kumush va boshqa metallarni qayta ishlash texnologiyalari rivojiga ham hissa qo'shgan.

Davomi 2-beta



ONA TABIATNI ASRASH — INSONIY BURCH VA AVLODLAR OLDIDAGI MAS'ULIYAT

Bugun O'zbekiston taraqqiyotning yangi va yuksak bosqichida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar bilan bir qatorda ekologik barqarorlik borasida ham dunyo hamjamiyatiga o'rnak bo'lgulik xayrli ishlarni bajarmoqda.

Davlatimiz rahbari boshchiligidagi atrof-muhit muhofazasi masalasi, global miqyosda kutilayotgan ekologik xavf-xatarlarga qarshi turish, ularning oldini olishga qaratilgan umummilliy harakat davlat siyosatining muhim qismiga aylandi. Zotan, xalqning ertangi kuni, kelajagi uchun qayg'uradigan mamlakatlar ekologik masalalarni taraqqiyotning eng muhim yo'nalishlari qatoriga qo'yarmoqda.

Prezidentimiz ilgari surgan va tom ma'noda umummilliy harakatga aylangan ezuq tashabbuslar zamirida nafaqat bugunning farovonligi, balki kelajak avlodlarning musaffo havodan nafas olishi, sog'lom tabiiy muhitda kamol topishdek ulug'vor maqsadlar mujassam. Atruf-muhitni yashillikka burkashga qaratilgan "Yashil makon" umummilliy harakati, sal avval qabul qilingan "Toza havo" umummilliy loyihasi

— bular ertangi hayotimiz, mamlakat va xalqimiz taqdiri, sog'lom kelajagimizga daxldor strategik yo'lining ajralmas qismiga aylandi.

Davlatimiz rahbari 1-aprel kuni "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida ko'chat ekish tadbirida ishtirok etib, Milliy dendrologiya bog'ini barpo etishga start berdi.

Davomi 3-beta



Xalqaro aloqalar



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



O'ZBEKISTON NAFAQAT QADIMIY O'TMISHGA EGA YURT, BALKI ISHONCH BILAN KELAJAK SARI INTILAYOTGAN DAVLATDIR

Byorn SYODER, Shvetsiya parlamenti (Riksdag) a'zosi, Riksdagning "Shvetsiya — Markaziy Osiyo" do'stlik guruhi rahbari, Shvetsiyaning YXHT Parlament assambleyasidagi delegatsiyasi rahbari

Boshlanishi 1-betda

Tarix davomida xalqlarimiz o'rtasidagi aloqalar turli shakllarda namoyon bo'lib kelgan. XVIII asrdagi Poltava jangidan keyin shvedlar sharqiy hududlar bilan yangicha usulda aloqa o'rnatib boshladi. XX asr boshlarida Sven Xedin kabi tadqiqotchi va geograflar Yevropada Markaziy Osiyo haqidagi bilimlarni yanada boyitishga xizmat qilgan.

Ushbu tarixiy nihoy bizga muhim bir haqiqatni eslatadi: mamlakatlarimiz va mintaqalarimiz o'rtasidagi munosabatlarga kecha paydo bo'lmagan, ular chuqur ildizlarga tayanadi.

Bugun O'zbekiston va Shvetsiya mana shu ming yillik aloqalarni yangi bosqichga olib chiqmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston xalqaro e'tibor va e'tirofga sazovor bo'lgan muhim islohotlarni amalga oshirdi. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, biznes va investitsiya muhitini yaxshilash, ijtimoiy sohani isloh etish hamda davlat institutlarini takomillashtirish yo'lida izchil qadamlarni davom ettirmoqda.

Shvetsiyada ham bu taraqqiyot o'z e'tirofini topmoqda. Buni, xususan, shved kompaniyalarining O'zbekistonga qiziqishi ortib, o'zaro delegatsiyalar almashinuvi kengayib borayotganida ko'rish mumkin. Ta'lim, migratsiya va reintegratsiya sohalarda grant dasturlari orqali yangi loyihalar amalga oshirilmoqda. Davlatlarimiz migratsiya sohasida keng qamrovli hamkorlik to'g'risidagi bitimni imzolashga juda yaqin turibdi. Ushbu hujjatning



ahamiyati shundaki, O'zbekiston Shvetsiya bilan bunday turdagi kelishuvni imzolaydigan ilk sherik davlat bo'ladi.

O'zbekistondagi keng ijobiy o'zgarishlar Markaziy Osiyodagi jarayonlarga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Mintaqa bugun sivilizatsiyalar o'rtasidagi muhim ko'priksifatida qayta namoyon bo'lmoqda. Yuz yillar davomida global almashinuv markazi bo'lgan Markaziy Osiyo XXI asrda savdo, energetika, transport va hamkorlikning muhim markaziga aylanib bormoqda.

O'zing strategik joylashuvi, islohotlarga yo'naltirilgan taraqqiyot strategiyasi va kuchli intilishi bilan O'zbekistonning mazkur jarayonlar tizimida ahamiyati, ayniqsa, muhim. Mintaqa qoq markazida joylashgan mamlakat Markaziy Osiyoning barqaror va konstruktiv ishtirokchisi, mintaqaviy va xalqaro hamkorlik hamda barqaror taraqqiyotni izchil ilgari surayotgan aktor sifatida o'zini tobora ishonchli namoyon etmoqda.

Yevropa, jumladan, Shvetsiya uchun bu teran va o'zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirish uchun muhim imkoniyatdir. Yanada chuqur va amaliy hamkorlik, xususan, savdo, investitsiya, innovatsiya va barqaror rivojlanish sohalari

yangi imkoniyatlarni yaratishimiz mumkin. Bunday hamkorlik ikki tomon uchun ham amalda o'zaro manfaatli bo'lishi tabiiy: uning bir tarafida aniq taraqqiyot strategiyasiga ega va bardavom iqtisodiy o'sishdagi, katta inson kapitali va boy tabiiy resurslarga ega O'zbekiston bo'lsa, ikkinchi tarafda yuqori texnologiyali kompaniyalar va ilg'or bilimlarga ega Shvetsiya turibdi.

Ishonchim komilki, global miqyosda e'tirof etilgan shved kompaniyalari O'zbekistondagi sanoatni modernizatsiya qilish va barqaror rivojlanishga sezilarli hissa qo'sha olishga qodir. Xususan, ushbu masalalar shu yil 13-mart kuni Shvetsiya Tashqi ishlar vazirligida ikki mamlakatning konchilik sohasi korxonalari o'rtasida o'tkazilgan biznes seminarida qizg'in muhokama qilindi.



“ YUZ YILLAR DAVOMIDA GLOBAL ALMASHINUV MARKAZI BO'LGAN MARKAZIY OSIYO XXI ASRDA SAVDO, ENERGETIKA, TRANSPORT VA HAMKORLIKNING MUHIM MARKAZIGA AYLANIB BORMOQDA.

Biroq bizning munosabatlarni faqat iqtisodiyotga asoslanmaydi. Hamkorligimiz insonlar o'rtasidagi aloqalar orqali yanada mustahkam bo'lishi mumkin. Bu borada biz hali to'liq o'rganib ulgurmaganimiz va o'z muddatini kutib turgan katta salohiyat mavjud. Buning sababi shuki, yaqin davrga qadar biz bir-birimiz haqida juda kam ma'lumotga ega bo'lganmiz va ba'zan haqiqatdan ancha yiroq tasavvur va stereotiplar bilan yashab kelganmiz.

2024-yili O'zbekistonga ilk bor tashrifim davomida yuqori darajadagi mehmondo'stlik va samimiyat guvohi bo'ldim. Bu menda chuqur va unutilmas taassurot qoldirdi. Ushbu mamlakatning boy tarixi, Buyuk ipak yo'lining muhtasham shaharlaridan tortib, rang-barang a'nanalarigacha — bularning barchasi kuchli

milliy o'zlik va iftixor madaniyati in'ikosi ekanini angladim.

Safarim davomida men yana bir muhim haqiqatni anglab yetdim: O'zbekiston nafaqat qadimiy o'tmishga ega yurt, balki ishonch bilan kelajak sari intilayotgan davlatdir.

So'nggi yillarda Shvetsiya va O'zbekiston, shuningdek, mintaqalarimiz o'rtasida parlamentlararo hamkorlikni mustahkamlash yo'lida faol ishlash sharafiga muayassar bo'ldim. Shu bilan birga, Toshkentda Shvetsiya elchixonasi ochilsa, aminmanki, bu nafaqat Shvetsiyaning diplomatik va siyosiy, balki ushbu strategik mintaqadagi iqtisodiy manfaatlariga ham xizmat qiladi.

YXHT Parlament assambleyasi doirasida biz Shimol-Boltiq mintaqasi va Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi muloqotni ancha faollashtirishga muvaffaq bo'ldik. Muntazam uchrashuvlar va qo'shma tashabbuslar orqali tajriba almashish hamda chuqur hamkorlik uchun platformalar ishlab chiqildi. Bu esa bir-birimizni yanada yaxshi anglash va tushunishga yordam berib kelmokda.

Shvetsiya parlamentidagi Markaziy Osiyo bo'yicha do'stlik guruhi rahbari sifatida Riksdagda biznes-seminarlar ham o'tkazib kelaman. Ushbu tashabbuslar shved kompaniyalarining O'zbekiston va butun mintaqaga bozoriga kirib kelishi uchun investitsiyaviy va texnologik hamkorlikning yangi formatini kashf qilish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratmoqda.

Hamkorligimiz kun tartibini O'zbekistonning boy va jozibador sayyohlik salohiyatini Shvetsiyada keng targ'ib qilish orqali yanada mustahkamlashga kelishib oldik. Yaqin orada biz ushbu mavzuga bag'ishlangan yirik tadbir o'tkazishni rejalashtirdik.

Shu yil 24-mart kuni "Shvetsiya — Markaziy Osiyo" guruhi Stokgolmda — Riksdag binosida O'zbekistonning diniy ekstremizmga qarshi kurashish, dinlarning muloqotni rivojlantirish va terroristik tashkilotlarning

sobiq a'zolarini reintegratsiya qilish borasidagi sa'y-harakatlariga bag'ishlangan seminariga mezbonlik qildi.

O'ta qiziqarli kechgan ushbu tadbirda O'zbekistondan nufuzli delegatsiya, jumladan, Musulmonlar idorasi raisi, muftiy Nuriddin Xoliqnazar va boshqa diniy konfessiyalar rahbarlari ishtirok etdi.

Seminar Shvetsiyada yuqori baholandi va O'zbekistonning tinchlik, barqarorlik, muloqot va ijtimoiy rivojlanishni ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlarini yanada chuqur va teran anglash imkonini berdi.

Mazkur tadbir "Tinchlik, avvalo, uydan boshlanadi" degan haqiqatni yana bir marta namoyon qiladi: O'zbekistonda 130 ga yaqin millat va etat 16 ta diniy konfessiya vakillarining tinch-totuv yashashini ta'minlashga qaratilgan sa'y-harakatlar, ayniqsa, mamlakatning murakkab geosiyosiy joylashuvini hisobga olganda, alohida e'tirofga loyiq.

Seminar Shvetsiya va O'zbekiston uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi "Biz bir-birimizdan o'rganishimiz mumkin bo'lgan jihatlarda juda ko'p ekan" degan xulosani ham olish imkonini berdi.

Shvetsiya va O'zbekiston bir-biridan uzoq geografik makonlarda joylashgan hamda o'z taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatlarda bo'lsa-da, barqarorlik, taraqqiyot va farovonlikka intilish kabi maqsadlarimiz muhtarak. Siyosiy muloqot, biznes, ta'lim, madaniyat va xavfsizlik kabi sohalarda hamkorligimizni chuqurlashtirish orqali uzoq muddatli va o'zaro manfaatli, turli stereotiplar va narrativlardan xoli sheriklikni barpo etishimiz mumkin.

Bugun biz sheriklik, o'zaro hurmat va umumiy manfaatlariga asoslangan yangi ko'priklarni qurish uchun ajoyib imkoniyatlarga egamiz. Ezgu g'oyalari va qo'shma sa'y-harakatlar orqali mamlakatlarimiz manfaatlariga birdek xizmat qiladigan ijobiy natijalarga erisha olishga ishonchim komil.

Biz buni qo'ldan boy bermasligimiz zarur.

QALBIMIZDA G'URUR VA IFTIXOR, ERKINLIK, HURLIK NASHIDASASI

Mustaqillik — o'zlikni anglatadigan, davlat suvereniteti, mamlakat taraqqiyotini ta'minlaydigan eng muhim qadriyat. Tarix bugun va kelajakni bog'lovchi buyuk ko'prikdir. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishilgan kun esa xalqimiz hayotida ham, davlatchiligimiz tarixida ham muhim o'rin tutuvchi shonli sana. Bu yil istiqlolga erishganimizga 35 yil bo'ladi. Mustaqillik shunchaki bayram emas, u o'zlikni anglatadigan, davlat suverenitetini e'tirof etadigan va mamlakat taraqqiyotini ta'minlaydigan eng muhim qadriyatlarimizdan.



Kimyoxon KAMOLOVA, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori

olg'a intilayotgani, bunyodkorlik ruhi bilan yashayotganidir.

Qarordagi "Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!" g'oyasi esa ushbu ezgu sa'y-harakatlarga hamohang. Mazkur g'oya orqali jamiyatning barcha qatlamini muhtarak maqsad atrofida jipslashtirish ko'zda tutilgan.

Hujjat bilan O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish bo'yicha respublika komissiyasi tarkibi tasdiqlandi.

Komissiya tomonidan mustaqillikning 35 yilligini Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri, viloyat va tuman (shahar) markazlarida, barcha mahalla, qishloq va ovullarda, shuningdek, vazirlik va idoralarda tizimida munosib nishonlash maqsadida konspeksiyaning mazmuni va asosiy yo'nalishlariga muvofiq chora-tadbirlar dasturlari ishlab chiqiladi va ijrosi ta'minlanadi.

Istiqlolga erishilgan dastlabki yillardan boshlab murakkab yo'l bosib o'tildi. Avvalo, inqiroz holatiga kelib qolgan mamlakatimiz iqtisodiyotida keng miqyosli islohotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, 2017-yildan boshlab O'zbekiston iqtisodiyoti chuqur transformatsiya jarayoniga kirdi. Bugun iqtisodiyotimiz 1991-yildagi ko'rsatkichdan qariyb ikki barobar, demografik o'sish esa, resurslar qisqarishiga qaramay, to'rt barobardan ziyod o'sdi. Shu bois, qarorda iqtisodiy barqarorlik va aholi farovonligini oshirishni keng targ'ib qilishga alohida ahamiyat qaratilgan.

Mamlakatimizning milliy suvereniteti va davlat mustaqilligini g'oyalarning siyosiy-huquqiy kafolatlarini o'zida mujassam etgan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz

hamda "O'zbekiston — 2030" strategiyasi asosidagi taraqqiyot yo'limiz inson qadriyatini yuksaltirish, ko'p millatli jamiyatimizda do'stlik va hamjihatlik muhitini mustahkamlash, milliy urf-odat va an'analarni asrab-avaylash, yurtimizda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash hamda Vatanimizning xalqaro obro'-e'tiborini oshirishda mustahkam tayanib bo'lib kelmokda.

Qarorda mahalla instituti va fuqarolik jamiyati rivoji, yoshlar, xotin-qizlar va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlash, millatlararo totuvlik va bag'rikenglik muhitini kuchaytirish borasidagi islohotlarni keng targ'ib qilish ham belgilangan. Zero, ushbu yo'nalishlar davlat siyosatida inson omili ustuvor ekanini ko'rsatadi.

“ Hujjat asosida "Mustaqillik to'yi" festivali, hujjatli filmlar, ijtimoiy loyihalar orqali aholi orasida istiqlol g'oyasini yanada mustahkamlash maqsad qilingan. Ayniqsa, yangi O'zbekiston bunyodkorlari qiyofasini o'zida aks ettirgan "Vatan fidoyilari" ramziy monumentini yaratish tashabbusi katta ahamiyatga ega.

U nafaqat o'tmish qahramonlarini, balki bugungi bunyodkor inson qiyofasini ifoda etishi bilan ham ahamiyatli. Shuningdek, shu orqida boshlab "35 yillik istiqlol yilnomasi" ruksida mustaqilligimizning tarixiy bosqichlari, erishilgan yutuqlar va bunyodkorlik ishlari yoritilgan turkum hujjatli filmlar, ko'rsatuvlar tayyorlash va telekanallarda namoyish etish ko'zda tutilgan.

Xalqimizda bayramni yutuqlar bilan qarshi olishdek yaxshi an'ana bor. Ayniqsa, bayram kunlarida yirik inshootlarning ochilishi, yangi korxonalar ishga tushirilishi, ijtimoiy obyektlarning foydalanishiga topshirilishi aholi uchun bayram shukuhini ikki karra oshiradi. Bu yilgi tantanalarda aholi nafaqat poytaxtda, balki mamlakatimizning barcha hududida bu kabi yuzlab voqealarga guvoh bo'ladi.

O'tayotgan har bir kun bizni mustaqilligimizni 35 yillik tantanalarga yaqinlashtirmoqda. Qalbimizda g'urur va iftixor, erkinlik, hurlik nashidasini tuyenmoqdamiz. Qolaversa, qalbmizda yana bir his — mustaqillikni ko'z qorachid'idek asrab-avaylash va uni mustahkamlash uchun hissa qo'shmoq niyati ustuvor.



Tahsil va taqqos



Qashqadaryo viloyatida sanoat sektori izchil islohotlar, yirik investitsiya dasturlari asosida barqaror o'sib bormoqda. Har bir yo'nalishda yangi loyihalar amalga oshirilib, ish o'rinlari yaratilayapti.

IMKONIYAT, INVESTITSIYA VA NATIJA

Qashqadaryo sanoatida yuksalish pallasi



Jumladan, G'uzor tumanida oziq-ovqat sanoati rivojlanayapti. Shu orqali aholini sifati mahsulot bilan ta'minlash hajmi oshib, eksport salohiyati yuksalmoqda. Yaqinda hududda yangi loyiha start olib, eksportyor korxonaga yana bittaga ko'paydi. Hududiy investitsiya dasturi doirasida "G'uzor don mahsulotlari" MCHJ tomonidan qiymati 75 milliard so'mlik un ishlab chiqarish korxonasi ochildi. Korxonaga yiliga 120 ming tonna oliy navli un tayyorlash quvvatiga ega. U Turkiyaning "Wensmak" kompaniyasi ilg'or texnologiyalari bilan jilhozlanib, ishlab chiqarish jarayoni to'liq avtomatlashtirildi. Bu mahsulot sifati va raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Korxonada 70 kishi doimiy ish bilan ta'minlandi.

Hozir korxonada mas'ullari Afg'onistonga 4,5 million dollarlik un eksport qilish uchun shartnoma imzolagan. Eksport izchil davom etmoqda. Loyiha hududda sanoat salohiyatini oshirib, bozorlarda mahalliy mahsulot ulushini ko'paytirayapti.

Avval Qashqadaryoda neft-gaz va kimyo sanoati ustunlikka ega edi. Hozir tarmoqlar soni kengayib bormoqda. Jumladan, to'qimachilik, oziq-ovqat, kiyim-kechak, elektrotexnika, qurilish materiallari va nonmetall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish tarmoqlari jadal rivojlanmoqda. Bu tarmoqlar ulushi sanoat mahsulotlari umumiy hajmining 53 foizdan ortig'ini tashkil etmoqda.

O'tgan bir yilda sanoat mahsulotlarining asosiy qismi ishlab chiqarish (qayta ishlovchi) korxonalar hissasiga to'g'ri keldi. Ularda jami 39 ming 236,4 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Bu mahalliy sanoat mahsulotlari umumiy hajmining 82,1 foiziga tengdir.

Shuningdek, o'tgan yil davomida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni tozalash yo'nalishida 6188,8 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlab bo'yicha 2107,9 milliard, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi va chiqindilarni utilitatsiya qilish yo'nalishida 187,1 milliard so'mlik taylor mahsulotlar olindi. Mazkur raqamlar viloyatdagi yangi ishlab chiqarish quvvatlariga ishga tushirilib, investitsiya siyosati samara berayotganidan dalolatdir.

Ayni paytda Qashqadaryoda qariyb uch mingta sanoat korxonasi faoliyat yuritmoqda. Shundan 131 tasi xorijiy va qo'shma korxonalar. Ular neft-gaz, kimyo, qurilish, to'qimachilik, oziq-ovqat, elektrotexnika va mebel sanoati yo'nalishlarida mahsulot ishlab chiqarmoqda. So'nggi yillarda, ayniqsa, to'qimachilik va taylor mahsulot ishlab chiqarish sohasida yuqori o'sishga erishilyapti. Masalan, 2025-yilda viloyatdagi to'qimachilik tarmog'ida 10,6 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Qarshi, Koson, Muborak, Kasbi, Shahrisabz va Yakkabog' tumanlarida faoliyat yuritayotgan yirik to'qimachilik korxonalarini mazkur ko'rsatkichga salmoqli ulush qo'shdi.

Viloyat sanoatida yirik strategik korxonalar ham muhim o'rin tutadi. Gazni chuqur qayta ishlab va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish yo'nalishida faoliyat yuritayotgan korxonalar ichki va tashqi bozorda birdek foyda keltirmoqda. Xususan, Dehqonobod tumanidagi kaliy o'g'it ishlab chiqarish majmuasi qishloq xo'jaligini zarur mineral o'g'itlar bilan ta'minlamoqda.

Bugun viloyatda investitsiya masalasi ham ijobiy natijalar qayd etilmokda. Mutaxassislar ma'lumotiga ko'ra, 2025-yilda viloyatga 2 milliard dollardan ortiq investitsiya jalb qilingan. Kirib kelgan sarmoya vositasida katta ishlar bajarildi. Yangi korxonalar tashkil etilib, mavjud ishlab chiqarish obyektlari modernizatsiya qilindi va minglab yangi ish o'rinlari ochildi.


Muhimi, sanoat tarmoqlarini diversifikatsiyalash natijasida xomashyo eksportiga bog'liqlik bosqichma-bosqich kamaymoqda. Hozir qayta ishlab va yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar sanoat ishlab chiqarishining 50 foizdan ortig'ini tashkil etmoqda. Bunday islohotlar esa viloyatning sanoat salohiyatini yanada yuksaltirishga mustahkam zamin yaratmoqda.

Akbar G'OZIYEV, jurnalist



“Yashil” taraqqiyot yo‘li

ONA TABIATNI ASRASH – INSONIY BURCH VA AVLODLAR OLDIDAGI MAS’ULIYAT



Abdushukur HAMZAYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi fraksiyasi rahbari

Boshlanishi 1-betda

O‘tgan yili ham Prezidentimiz Toshkent shahri “yashil belbog‘i” uchun ko‘chat ekkandi. Bugun biz buning nechog‘liq ahamiyatini yetarlicha anglab yetolmayotgandir, ehtimol, ammo hozirgi ekologik vaziyatga teranroq nazar tashlasak, “tabiatning ovozi”ga quloq tutsak, vahimaga tushib qolishimiz hech gap emas. Mamlakatimiz yetakchisi esa “yashil” hayotga o‘tish qanchalik muhimligini doim ta’kidlab keladi. Ona tabiat muvozanatini tiklash, yurtning ertangi kuniga befarq bo‘lmashlik borasida shaxsan o‘zi xalqimizga namuna ko‘rsatmoqda.

Bu galgi xayrli tashabbus avvalgilardan yana bir muhim jihati bilan alohida ajralib turadi. Ya’ni yurtimizdagi vazirlik va idoralar rahbarlari, ziyolilar, nuroniylar va yoshlar vakillaridan tashqari xorijiy davlatlarning mamlakatimizdagi diplomatik korpusi vakillari ishtirok etdi. Bu — O‘zbekiston hamjihatlik, o‘zaro ishonch va tinchlikni qadrlash, barqaror taraqqiyot yo‘lidan qat’iy borayotganining forqini ifodasi. BMTning O‘rmonlar bo‘yicha forumi raisi Ismoil Belenning bu sa‘y-harakat O‘zbekiston Prezidenti boshchiligidagi dunyo davlatlarini birlashtirishga undovchi siyosiy tashabbus ekanini ta’kidlagani barchamizni birdek g‘ururlantiradi.

Ayni paytda nafaqat Markaziy Osiyo mamlakatlari, balki butun jahon hamjamiyati iqlim o‘zgarishi tufayli yuzaga kelayotgan muammo va tahdidlarga yechim topishga urinmoqda. Bu muammolar qatoriga atmosfera issiqxona gazlarining ko‘payishi, yerning ustki qobig‘i haroratining oshishi, suv resurslari taqchilligi, tabiiy ofatlarning tez-tez takrorlanishi, cho‘llanish jarayonining jadallashishi va boshqalarni kiritish mumkin. Mutaxassislar iqlim o‘zgarishi tabiiy ofatlarning yangi turlari paydo bo‘lishiga sharoit yaratishi bilan bir qatorda mavjud tabiiy ofatlarning zarar yetkazish ko‘lamini bir necha barobar oshirishi, hatto boshqarib bo‘lmaydigan darajaga yetkazishi muhtimol ekanini ta’kidlaydi.

Xalqaro tashkilotlar va ilmiy doiralarda iqlim o‘zgarishi dunyoning qator hududlarida turli darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni

yuzaga keltirishini taxmin qilyapti. Xususan, Jahon banki ma’lumotiga ko‘ra, iqlim o‘zgarishi kuchli ichki migratsiyaga sabab bo‘ladi, jumladan, 2050-yilgacha dunyoning oltita mintaqasida yashayotgan 216 million odam yashayotgan makonidan boshqa hududlarga ko‘chib ketadi. Bu mintaqalar orasida Markaziy Osiyo borligi ushbu muammoning mintaqaviy davlatlari uchun qanchalik dolzarb ekanini isbotlaydi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, so‘nggi 50-60 yilda iqlim sharoiti o‘zgarishi natijasida Markaziy Osiyoda muzliklar yuzasi 30 foiz qisqardi. Bu jihat davolov va ularning ekotizimiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Oxirgi bir necha o‘n yillikda o‘rtacha yillik harorat 1,5 daraja ko‘tarildi va asr oxiriga borib 2 darajadan 5,7 darajagacha oshishi taxmin qilinmoqda.

Bunday ekologik buhronlar, albatta, mamlakatimizni ham chetlab o‘tmaydi. Yurtimizda allaqachon boshlangan ekologik xavf-xatarlarni bartaraf qilish, cho‘llanishni kamaytirish, suv taqsimotini o‘zgartirish, havo tozaligini ta’minlash, shovqin bilan ifloslanish va chang-to‘zanni kamaytirish, insonlarning asab tizimini barqarorlashtirish uchun ham bugun daraxt ekishga katta e’tibor qaratilmoqda, borlarini esa asrashimiz dardkor.

Iqlim o‘zgarishi oqibatlari O‘zbekiston aholisi farovonligiga turlicha ta’sir ko‘rsatadi. 2030-yilga borib mamlakat bo‘ylab shahar va qishloqlarda kamida 8 million kishi iqlim o‘zgarishi xavfi juda yuqori bo‘lgan hududlarda istiqomat qilishi kutilmoqda. CCDR hisobotiga ko‘ra, agar iqlim o‘zgarishiga moslashish choralarini ko‘rilmasa, 2050-yilga borib milliy iqtisodiyot hajmi iqlim o‘zgarishidan zarar ko‘rmagan holatdagi ko‘rsatkichdan 10 foiz past bo‘lishi ehtimoli yuqori. Bu aholi bandligi va daromadining sezilarli qisqarishiga olib keladi.

Biz yashayotgan hudud sharoitidan kelib chiqqan, iqlim o‘zgarishining jiddiy oqibatlaridan bizni himoyalovchi yagona manba bu — daraxtlar. Mana shuning o‘zi so‘nggi besh yildan buyon davlatimiz rahbari tashabbusi bilan “Yashil makon” umummilliy loyihasi amalga oshirilib, har yili 200 million tup ko‘chat ekilayotgani nechog‘liq ahamiyatli ekanini tasdiqlaydi.

Keyingi bir oyda Prezidentimiz ekologiya va atrof-muhit muhofazasiga qaratilgan o‘nga yaqin yangi hujjatni imzoladi. Ayrim qonun



hujjatlariga atrof-muhit, hayvonot va o‘simlik dunyosining muhofazasini kuchaytirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlashga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirish kiritishga oid qonun, “Toza havo” umummilliy loyihasini amalga oshirish bo‘yicha hamda “Yashil makon” umummilliy loyihasi samaradorligini yanada oshirish to‘g‘risidagi farmonlar, “Ekomodaniyat” umummilliy loyihasi doirasida ekologik ta’lim, ilm-fan va targ‘ibotni jadallashtirishga oid kompleks chora-tadbirlarga doir hujjatlarida mamlakatimizda ekologik vaziyatni yaxshilashning aniq mexanizmlari belgilab berildi. Bu esa xalqimizning munosib hayot kechirishi, ekologik huquqlarini ta’minlashga qaratilgan navbatdagi jiddiy qadamdir.



Taraqqiyot ko‘rsatkichlari shiddat bilan o‘zgarayotgan bir davrda aholi jon boshiga nechta daraxt to‘g‘ri kelishiga oid ma’lumotlar bugun eng asosiy mezonlar qatoriga chiqmoqda. Zotan, bugun rivojlangan davlatlarda har bir kishiga o‘rtacha 15-18 tup daraxt to‘g‘ri keladi.

Olamlarimizning hisob-kitobiga ko‘ra, o‘rta yoshli insonning bir yilda 700-740 kilogramm kislorodga ehtiyoji bor. Bizning tuproq iqlim sharoitimizda 10-12 metrli yilqoq bargli daraxt bir yilda o‘rtacha 100 kilogramm atrofida kislorod ishlab chiqaradi. Demak, aholi punktlarida har bir inson uchun 10 metrdan kam bo‘lmagan kamida 7-8 tup daraxt bo‘lishi kerak. Yana ham aniqroq aytarsak, 37 million kishi uchun 260-300 million tup, Toshkent shahri aholisi uchun esa shaharda 20-28 million tup 10 metrdan ziyod bargli daraxt zarur.

Nafaqat Toshkent, balki yurtimizdagi boshqa yirik shaharlarda ham havo sifatini yaxshilash masalasi tobora jiddiy tus olayotganiga asosiy sabab daraxtlar sonining kamligi, shahar atrofida yashil hududlarning yetarli emasligidir.

Poytaxtimiz binqinida barpo etilayotgan Milliy dendrologiya bog‘i esa shaharga kirib keladigan toza havoni ta’minlovchi asosiy manbaga aylanadi. Ayni vaqtda 65 gektar maydonda 50 ming tup daraxt, 100 ming tup turli buta ko‘chatini ekish ishlari boshlangan. Kelgusida bog‘ hududini kengaytirish ko‘zda tutilgan. Natijada bu noyob ekologik musaffo hududning umumiy maydoni 108 gektargacha

yetkaziladi. Bog‘da o‘rtacha 80-120 turdagi daraxt va butalar kolleksiyasi joylashtiriladi. Qisqasi, yaqin yillarda Milliy dendrologiya bog‘ining har bir gektari yiliga o‘rtacha 28 tonna changni, PM10, PM2,5 zararlarni yutuvchi ulkan tabiiy filtrga aylanadi.

Eng muhimi, Surxondaryoda 10 ming gektarda “yashil makon”, Sirdaryoda 84 kilometri “yashil devor” barpo etish ishlari ham boshlandi. Qoraqalpog‘istonda 1 million gektar, Navoiy va Buxoroda 300 ming gektardan, Xorazmda 85 ming gektar cho‘l hududida yangi o‘rmonlar yaratiladi.

Milliy dendrologiya bog‘ini barpo etishga start berilgan kunning o‘zida hududlarda 21 mingga yaqin yurtdoshimiz 164 gektar maydonda 88 ming tup ko‘chat o‘tqazdi. Mana shuning o‘zi ona tabiat himoyasi, xalqimizning ertangi sog‘lom hayoti uchun daxldorlik hissi bugun har bir yurtdoshimiz qalb amriga aylanganining ifodasi emasmi?! Osonimozida yaqin yillarda chinakam musaffo va sog‘lom muhit qaror topishiga ishonch bu.

Ilgari ham har mavsumda daraxt ekish kampaniyalari avj olar, qog‘ozlarda million-million tup ko‘chat ekilgani haqida hisobotlar to‘ldiriladi. Ularning keyingi taqdiri, parvarishi uchun kimdir mas’ul bo‘lishi kerakligi haqida, afsuski, hech kim bosh qotirmasdi. Qayerga qanday daraxt ekish kerakligi, kelgusida bu daraxt yerda tutib ketishi haqida-ku mutaxassis tugul, hatto tajribali biron bog‘bonning fikrini eshitib ko‘rish bironing xayoliga kelmas edi. Oqibatda qancha-qancha ko‘chat qurib, uvol

bo‘ldi, noo‘rin tanlangan daraxt turlari ayrim insonlar uchun kasallik qo‘zg‘atuvchi manbaga ham aylandi.

Bugun vaziyat butunlay boshqacha. Ekilayotgan har bir ko‘chat parvarishi uchun mas’ul birlashtirilgan, ya’ni bitta daraxt voyaga yetguniga qadar g‘amxo‘rlik qiluvchi egasi bor. Bundan tashqari, har bir ko‘chatning taqdiri va parvarishi jamoatchilik nazoratida. Birgina biz — deputatlar faoliyatini olaylik. Har oy yakunida hududlarga, saylovchilar huzuriga borganda, albatta, o‘sha hududda ekilgan ko‘chatlar parvarishini ko‘zdan kechirish odat tusiga aylandi. Parlament tomonidan esa har bir chorak yakunida mas’ul tashkilotlar rahbarlari, mutasaddilarning aynan “Yashil makon” doirasida ekilgan ko‘chatlar parvarishiga oid axboroti tinglab borilmoqda. Ko‘chatlar parvarishida e’tiborsizlikka yo‘l qo‘ygan mas’ullar esa tegishli organlar tomonidan qonunon jazolanmoqda.

Ko‘chatlarni tanlash, qaysi hududda qanday daraxtlarni o‘stirish kelgusi o‘n yillikda nimalar berishi ilmiy asosda belgilab olinayotgan esa alohida e’tiborga molik. Davlatimiz rahbarining aynan ko‘chatlarni tanlashda ham ilmiy asoslarga tayanishni talab qilayotgani, kerak bo‘lsa, asrlargacha davom etishi mumkin bo‘lgan xatoning oldini olishdir. Shuning uchun ham Prezidentimiz hududga mos daraxt turlarini tanlash va ekishda Xalqaro molekulyar allergiologiya markazining tavsiyalari olinayotganini alohida qayd etdi. “Yashil” universitet hududida “Ilm — loyiha — amaliyot” janri asosida barpo etilayotgan “in vitro” laboratoriyasi, Dorivor o‘simliklar hamda Urug‘chilik va seleksiya markazlari shu yilning o‘zida ishga tushirilishi katta ahamiyatga ega.

Endi yashil bog‘lar yaratishda aholi va deputatlar ishtiroki yanada kengayadi. Ochig‘i, bu biz, deputatlar uchun, o‘zbekiston Ekologik partiyasi uchun juda katta mas’uliyat va ishonch ifodasidir. Ilgari “Mening bog‘im” dasturi doirasida har bir loyihaiga byudjetdan 250 million so‘mgacha mablag‘ berilgan bo‘lsa, endi bu miqdor 400 million so‘mdan oshiriladi.

Joriy mavsumdan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi har bir deputatiga o‘z okrugida yashil hudud, yashil bog‘ yaratish uchun 412 million so‘mdan mablag‘ beradi. Mana shunday cheksiz imkoniyatlar davrida bizdan talab etiladigan faqat bir jihati: bir tup bo‘lsa ham ko‘chat ekish, ekilgan daraxt uchun qayg‘urish, har qariyb yashil hududni ko‘z qorachig‘idek asrashdir.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, xalqimizda “Yaxshidan bog‘ qoladi”, “Bir ko‘chat ekang — ming baraka”, “Farzand ko‘chat, to‘y qilsang, daraxt ek” degan teran ma’noli hikmatlar bejiz aytilmagan. Bu so‘zlar millatimizning qon-qoniga singib ketgan, asrlar davomida madaniyatimiz hayotiga sayqal bergan yashash falsafasi, ota-bobalarimizning go‘zal tutumidir.

Davlatimiz rahbari mahalla raislari, nuroniylarimiz va yoshlarimizga murojaat qilib, har bir ko‘cha va xonadonga fayz beradigan nihollar ekishda tashabbuskor bo‘lishga chaqirdi. Bu chaqiriq har bir vijdonli insonning qalbidagi aks sado bemog‘i lozim. Zero, mahalla oqsoqollari va onaxonlarning boshqarilgan bosh-qosh bo‘lishi — yosh avlod uchun eng katta tarbiya maktabi. Buni kundalik hayotimizda, atrof-muhitdagi o‘zgarishlarda yaqqol his etib turibmiz.

Biz bu strategik tashabbus va xalqimiz dilidagi ezgu takliflarning behad quvondik. Xayrli ishlarga ko‘pni ko‘rgan nuroniylarimiz, shijoatli yoshlarimiz va barcha mehnat jamoalarining kamarbasta bo‘layotgani hammamizni ruhlantiradi. Shu bois, bor kuch va imkoniyatimizni safarbar etib, ushbu ishlohtarning jirosini ta’minlash, ekologik madaniyatni yuksaltirishda eng oldingi saflarda bo‘lishimiz shart. Mahallalar va xonadonlarda yashilik dunyosini kengaytirish, ona tabiatni ko‘z qorachig‘idek asrash yo‘lida deputatlik va jamoatchilik nazoratini kuchaytiramiz.

Ezgu niyat va katta maqsadlar bilan ona zaminiga qadalgan har bir nihol — hayot davomiyliyi, toza nafas va sog‘lom kelajak demak.

ULUG‘VOR MAQSADLAR VA EZGU ISHLAR MANZILI



Oramizdagi odamlar

Surxondaryo viloyati Angor tumanidagi “To‘lqin” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi Erkin Rahmonov fidoyi yurtdoshlarimizdan. Uning mehnati, izlanishlari davlatimiz tomonidan yuksak baholandi. Mahalla tizimi xodimlari kuni arafasida “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlandi.

— Bugun mahalla tizimida ishlash sharafli vazifaga aylandi. Avval mahalla raisi deyilsa, faqat ma’lumotnoma berish bilan shug‘ullanadigan kishi ko‘z oldimizga kelardi. Mahalla raisi tashabbus ko‘rsatib, hudud hayotini o‘zgartirishi xayolimizga ham kelmasdi. Hozir mahallada katta imkoniyat bor. U chinakam o‘zini o‘zi boshqarish institutiga aylanib boryapti. Ayniqsa, so‘nggi yillarda mahalla tizimidagi islohotlar aholi turmushi darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatyapti. Buni To‘lqin mahallasidagi aholi hayoti misolida ham ko‘rish mumkin, — deydi “Do‘stlik” ordeni sohibi Erkin Rahmonov. — Ayniqsa, joriy yilda mahalla instituti yangi bosqichga olib chiqilmoqda. Yil nomidan kelib chiqib, belgilangan vazifalar sabab yaxshi natijalarga erisha boshladik.

Mahalla raisining so‘zlarini shu manzilda yashaydiganlar bir ovozdan tasdiqlaydi. Ular yaratib berilgan imkoniyatlardan oqilona foydalanib, elga xizmat qilayotgan mahalla raisidan mamnun.

— Mahalla jamiyatning yuragi, insonlar daru quvonchi tutashadigan maskan. Bugun uning jamiyat hayotidagi o‘mi va ahamiyati tobora ortib bormoqda, — deydi O‘zbekiston Jumalistar uyushmasi a’zosi, faxriy jumalist Norquvvat To‘rayev. — Jumladan, To‘lqin mahallasida ehtiyojmand oilalarning uy-joy sharoitini yaxshilash, ishizlarni ishl qilish, yoshlarning boshini birlashtirish, masalan, to‘garaklarga jalb etish, ayollarni tadbirkorlikka o‘rgatish, mahallada tartibni saqlash — mahalla yetiligi’ning zimmasida. Mas’ullar bir yoqadan bosh chiqarib ishlashda raisning o‘mi katta bo‘lyapti.

Aholining aytishicha, Erkin Rahmonov mahalla ahli bilan muttasil muloqot qiladi. Odamlarni qiynayotgan masalalar bilan qiziqib, hal etishda barcha imkoniyatlarni ishga soladi. Ayniqsa, yoshlarni qo‘llab-quvvatlab, ehtiyojmand oilalarga ko‘mak berishda tashabbuskor.

— Mahalla tizimiga ko‘proq vakolat va imkoniyatlar berilishi tizimda faoliyat yuritayotgan minglab fidoyilarga yangi kuch va ilhom bag‘ishlamoqda, — deydi mahalla raisi. — Ayniqsa, kichik mehnatimiz yuksak baholangani belni mahkam bog‘lab, yur ravnag‘i yo‘lida yanada shiddat bilan ishlash, ishonchni oqlashga undadi.

Shu yil fevralning so‘nggi kunlari Jarqo‘rg‘on tumanida yashaydigan Yigitali Abdullayevning hayotida katta burilish yuz berdi. Prezidentimiz Surxondaryoga tashrif chog‘ida Jarqo‘rg‘ondagi “Yangi O‘zbekiston” massivini borib ko‘rdi. Mamlakatimiz rahbari yangi massivdagi “Young Adults” o‘quv markazi faoliyati bilan ham tanishdi. Ushbu tashrifda Yigitali Abdullayev faoliyatiga ishonch bildirildi. O‘quv markazi uchun yangi imkoniyatlar eshigi ochildi. Bu tajriba yanada takomillashtirilib, mamlakat bo‘yicha ommalashtiriladigan bo‘ldi.

Davlatimiz rahbarining “Mahalla tizimi xodimlari kuni munosabati bilan bir guruh yurtdoshlarimizni mukofotlash to‘g‘risida”gi farmoniga binoan Yigitali Abdullayev “Kelajak bunyodkori” medali bilan taqdirlandi.



Jarqo‘rg‘on tumanidagi “Yangi O‘zbekiston” massivi nomiga munosib ravishda yangilanishlar, bunyodkorlik va intilishlar maskaniga aylanib bormoqda. Bu yerda bo‘y ko‘rsatyotgan har bir tashabbus, ayniqsa, yoshlar ta’lim-tarbiyasiga qaratilgan e’tibor yurtimizdagi keng ko‘lamli islohotlarning amaliy ifodasidir.

Mana shu imkoniyatdan unumli foydalanigan

Yigitali Abdullayev rahbarligidagi “Young Adults” o‘quv markazi nafaqat ta’lim muassasasi, balki hudud iqtisodiyoti va yoshlar bandligini ta’minlashda muhim darayga aylanganmoqda. 400 o‘rinli markazning yillik qamrovi 2000 kishini tashkil etyapti. Bu mavjud quvvatdan foydalanish darajasi qariyb 500 foizni tashkil etayotgani hamda infratuzilma samarali

ishlayotganidan dalolat beradi. Bitiruvchilarning kamida 60-70 foizi ishli bo‘lmoqda. Shu orqali o‘quv markazi yiliga taxminan 1200-1400 yigit-qizning iqtisodiy faol qatlamga qo‘shilishiga sabab bo‘lyapti.

Davlatimiz rahbarining 2021-yil 12-oktabrdagi tegishli farmoniga muvofiq, Jarqo‘rg‘onda “Yangi O‘zbekiston” massivi qurilishi hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga doir chora-tadbirlar davom etmoqda. Cho‘l hududini o‘zlashtirish hisobiga bunyod etilayotgan massivning 50 gektarida 116 ta ko‘p qavatli uy qurilishi rejalashtirilgan. Hozirgacha poliklinika, 180 o‘rinli bog‘cha, 330 o‘rinli maktab va mahalla binosi foydalanishga topshirilib, 68 ta uyda 1500 xonadonga aholi ko‘chib kirdi.

Bunday ijtimoiy obyektning olishdagi hududlarda ham barpo etilayotgani Yigitali singari hayotga yangicha nigoh bilan qaraydigan yoshlarni ruhlantirib, ulkan marralar sari boshlamoqda.

— Hayotdagi maqsadi insonning yo‘lchirog‘i, rejalarini esa ko‘zlagan manzili sari eltadigan aniq xaritasi, tanlovi esa taqdiri eshigini ochadigan kalit deb bilaman. Kim o‘z oldiga aniq maqsad qo‘ya olsa, uni amalga oshirish uchun puxta reja tuzsa va to‘g‘ri tanlov qilishdan qo‘rmasa, albatta, natijaga erishadi, — deydi “Kelajak bunyodkori” medali sohibi Yigitali Abdullayev.

Bugun shaharu qishloqlarimizda odamlarning quvonishiga arziyodgan xayrli ishlar qilinmoqda. Obodlik va farovonlik sari yuz tutayotgan bu manzillarda ham ulug‘vor maqsadlarga ishonch bo‘y ko‘rsatmoqda.

Sarvar TO‘RAYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Kun mavzusi



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news

XAVFSIZ, QULAY VA ZAMONAVIY

TOSHKENT SHAHRIDAGI MARKAZIY AVTOBUS YO'LAKLARI UZAYTIRILMOQDA

Hozir istalgan manzilga jamoat transportida yengil avtomobildagidan ko'ra tezroq yetib olish mumkin. Chunki yo'lardagi tirbandliklar mashinalar harakatini sezilarli sekinlashtiryapti, jamoat transporti esa alohida yo'llar orqali nisbatan tezroq harakatlanadi. Qolaversa, yurtimizda keyingi yillarda jamoat transporti tizimi ancha rivojlanib, odamlarning undan foydalanish ko'rsatkichi bir necha barobar oshdi. Hatto ayrim haydovchilar qisqa masofaga tezroq yetib olish uchun yengil avtomobilni biror nuqtada qoldirib, avtobus yoki metroga chiqayotganiga guvoh bo'lyapmiz.



ularning hammasi ham yo'ning o'ng tomonida bo'lmaydi. "Yashil" yo'laklar ko'chalarning xususiyatidan kelib chiqib, yo'ning markaziy qismida ham joylashtiriladi. Xorij tajribasida ommalashgan bu amaliyotni yurtimizda qo'llash boshlangan. O'tgan yilning 7-oktabr sanasida Toshkent shahri Shota Rustaveli ko'chasining markaziy, ya'ni o'rta qismida alohida avtobus yo'laki foydalanishga topshirildi. Bu voqea O'zbekistonda ilk bor avtobuslar yo'lining o'rta qismidan harakatlanish boshlagani bilan ko'pchilikning yodida qoldi. Hozirgi kunda 7 kilometr uzunlikdagi mazkur ko'cha bo'ylab 22 ta avtobus yo'nalishi o'tib, odamlarni manzilga tez va xavfsiz yetkazib qo'yishga xizmat qilyapti.

Yangi Sergelidan "Uch qahramon" postigacha

Mazkur amaliyot tajribada muvaffaqiyatli sinovdan o'tib, avtobuslar uchun alohida "yashil" yo'laklarning markazda joylashishi ancha qulay ekanini ko'zga tashlandi. Shu bois, mutasaddilar avtobus yo'laklarini aynan yo'ning o'rta qismida joylashtirish bo'yicha katta loyihani ishlab chiqdi. Toshkent shahri hokimligida bo'lib o'tgan taqdimotda aytilishicha, alohida avtobus yo'laklarini tashkil etishning keyingi bosqichi bir butun yo'lak hisoblangan Yangi Sergeli, Shahrizabz va Amir Temur ko'chalarida davom etadi.

Bu Shota Rustaveli ko'chasi bo'ylab o'tgan "yashil" yo'lakning davomi bo'lib, loyihaga ko'ra, ular ham yo'ning o'rta qismida tashkil etiladi. Yo'nalishlar xaritasi bo'yicha avtobus yo'laklari Yangi Sergelidan boshlanib, Shota Rustaveli va Shahrizabz ko'chalari orqali o'tadi. O'zgarib qilib aytganda, alohida yo'lak "Uch qahramon" postigacha boradi. Yo'lak shaharning

asosiy qismlarini markaz bilan tezkor bog'laydi. — Shota Rustaveli ko'chasidagi loyiha o'zini oqlab, amaliyotda yaxshi natija berdi. Alohida avtobus yo'lakining ko'cha markazida joylashgani shahar transport tizimida qulaylik yaratib, tirbandliklarni kamaytirish, jamoat transportiga ustunlik berishda samaraliroq ekanini, qolaversa, odamlarning mamnuniyati davlatimiz rahbari tomonidan yuqori baholanib, qo'llab-quvvatlandi, — deydi Toshkent shahri hokimligi Yo'l harakatini tashkil etish markazi bo'lim boshlig'i Olloyor Norbo'tayev. — Endilikda loyihaning keyingi bosqichini amalga oshirish arafasida turibmiz. Unda ikkita muhim jihat ko'zda tutilgan — belgilangan hududlarda tezkor avtobuslar tarmog'i (BRT)ni ishga tushirish va poytaxtning eng muammoli chorrahalardan birida zamonaviy yo'l o'tkazgich qurilishi.

Avtobuslar uchun o'rta qismdan o'tadigan alohida "yashil" yo'lakning umumiy uzunligi 24,3 kilometrni tashkil etadi. Shundan 16,2 kilometr qismi Yangi Sergeli, Shahrizabz va Amir Temur ko'chalari bo'ylab o'tadi. Ayni paytda ushbu yo'larda 49 ta avtobus yo'nalishi, 53 ta bekat mavjud bo'lib, umumiy hisobda kuniga 260 ming yo'lovchi tashilmoqda. Rekonstruksiya davri 19 foiz oshib, 310 ming nafarga yetishi kutilyapti. Yo'lovchilarning A nuqtadan B nuqtaga yetib olish vaqti esa 15 daqiqaga qisqarishi hisob-kitob qilingan. Ushbu yo'lakka qo'shimcha sifatida Mirzo Ulug'bek ko'chasi ham tanlab olingan bo'lib, uning 8,1 kilometr qismida markaziy avtobus yo'laklari tashkil etiladi.

Avtobus yo'laklari qurilishi turidan yo'llar chetida piyodalarga keng va ravon turgohlar, sog'lom turmush tarafdorlari uchun maxsus velosiped yo'laklari barpo etiladi. Daraxtlar, o'simliklar ekilib, o'rindiqlar o'rnatiladi. Shota Rustaveli ko'chasi bu borada joriy namuna

bo'la oldi. Taqdim etilgan yangi loyihada ham ayni jihatlarni nazarda tutilgan. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, qurilishlar davomida ko'chiriladigan daraxtlar o'rni qo'shimcha 8 ming gektar "yashil" maydonlar tashkil etiladi. Loyihaning yana bir o'ziga xosligi alohida avtobus yo'laklari metro bekatlari bilan integratsiya qilinishidir. Mutasaddilarning aytilishicha, metro bekatlari atrofida maxsus transport o'tish bog'lamlari ochiladi. Bunda yo'lovchilar metrodan chiqib, uzoq yurmasdan, maxsus bog'lamlar orqali to'g'ri tezkor avtobus yo'laklariga o'tishi mumkin yoki aksincha. Yo'lovchilar markaziy avtobus yo'laklariga o'tishda ham yangi yer osti yo'llari qurilmasdan, metro bekatlaridagi yer osti yo'llaridan foydalanadi. Shu bilan birga, har bir avtobus bekatiga o'tish uchun yo'l ustida piyodalar o'tish yo'llari, svetoforlar tashkil etiladi. Avtobuslarga esa yo'l o'rtasida joylashgan maxsus platformalar orqali chiqib tushiladi. Ya'ni piyodalar xavfsizligi va qulayligi uchun alohida tartiblar amal qiladi.

Buyuk ipak yo'li metro bekati yonida ikki qavatli yo'l o'tkazgich quriladi

Ma'lumotlarga ko'ra, Toshkent shahrida avtotransport vositalari doimiy harakatlanadigan asosiy yo'l tarmoqlari uzunligi 470 kilometr bo'lgani holda 380-400 ming avtotransport harakatiga mo'ljallangan. Ammo odatda bu raqam 1 milliondan oshib, bir vaqtning o'zida harakatlanish sig'imidan 2 barobar ortib ketadi. Bu asosiy ko'chalarga 2 barobar ko'p yuklama tushyapti degani. Yo'larda turgan avtobuslar yuzaga kelishi ham shu bilan bog'liq. Bu mutasaddilar oldiga yangi loyihalar, zamonaviy yechimlarni qo'llash vazifasini qo'ymoqda.



Toshkentdagi "BRT" loyihasi yangi bir muhim yangiligi Mustaqillik, Mirzo Ulug'bek va Buyuk ipak yo'li ko'chalari kesishmasida quriladigan noyob konstruksiyaga ega, zamonaviy, aylama harakatli ikki qavatli yo'l o'tkazgichidir. Loyiha Xitoy kompaniyalari mutaxassislari hamda mahalliy ixtisoslashtirilgan tashkilotlar bilan kelishilgan holda ishlab chiqilgan bo'lib, qurilish ishlari buyurtmachi tashkilot — "Tashkent Invest" AJ kompaniyasi tomonidan bajarilishi ma'lum qilindi. Jarayonda transport oqimlarini o'rganish va avtomobillar harakatini modellashtirishda sun'iy intellektdan foydalanilgan.

Yangi yo'l o'tkazgich tushadigan ko'chalar ayni paytda shahar markazidagi eng tirband manzillardan biri sanaladi. Ba'zan mazkur nuqtada YHXX xodimlari kuniga bir necha bor harakatni qo'lda boshqarishga majbur bo'ladi. Loyiha ishlab chiqaruvchilari taklif etayotgan aylama harakatli ikki qavatli yo'l o'tkazgich mavjud vaziyatni jiboy tomonga o'zgartirishi reja qilingan. Hisob-kitoblarga ko'ra, yo'l o'tkazgich S-1 massividan Kichik halqa yo'ligacha bo'lgan 8 kilometr masofani bosib o'tishning o'rta vaqtini tig'iz paytlarda 25 foizgacha qisqartiradi. Ya'ni loyiha avtomobillarning katta oqimi harakatlanadigan yo'larda tirbandlik muammosini hal qilishi rejalashtirilgan. "Tashkent Invest" kompaniyasi rahbari Bahrom Shokirovning so'zlariga ko'ra, barcha o'zgarishlar aholi va mehmonlarga qulaylik yaratish maqsadida amalga oshirilayapti.

Yo'l o'tkazgich Buyuk ipak yo'li metrosi atrofidagi katta chorraha bo'ylab tushadi. Hozir bu chorrahadan kuniga 100 mingga yaqin avtomobil o'tadi. Loyiha amalga oshirilgach, bu ko'rsatkich 120 mingga oshadi, soatiga 19 mingdan ko'proq avtomobil harakatlanadi. Asosiy, avtomobil oqimi ortishi barobarida tirbandlik ham bartaraf etiladi. Boisi, zamonaviy yo'l o'tkazgich hisobiga mashinalarning o'rta harakat tezligi soatiga 21 kilometr dan

26 kilometrga ko'tariladi. Jamoat transporti harakati ham tezlashadi. Natijada chorrahaning o'tkazuvchanligi 130 foiz oshadi. Shu bilan birga, ikki qavatli yo'l o'tkazgich hisobiga transport oqimi samarali taqsimlanib, asosiy magistral yo'llardagi yuklama kamayadi, barcha harakat ishtirokchilari uchun xavfsizlik oshiriladi.

— Yangi loyihalar Toshkentning faqat mashinalarga moslashgan shahardan jamoat transporti ustuvor bo'lgan shaharga tizimli ravishda o'tayotganini ko'rsatadi, — deydi Toshkent shahri hokimligi Yo'l harakatini tashkil etish markazi bo'lim boshlig'i Olloyor Norbo'tayev. — Xalqaro tajribalardan ham ko'rinadiki, tirbandliklar ortib borayotgan zamonaviy shaharlarda yo'llarni shunchaki kengaytirish endi foyda bermaydi. Aksincha, mavjud yo'llarda jamoat transportiga ustuvorlik berish, odamlarning ulardan foydalanish darajasini oshirish eng samarali yechimga aylangan. Chunki yo'llardagi tirbandliklar odamlarning kunlik kayfiyatiga ta'sir qilishi barobarida shaharga ham ekologik, ham iqtisodiy zarar yetkazadi. Tadqiqotlarga ko'ra, tirbandliklar ko'p bo'lgan vaqtda avtomobillardan atmosferaga ko'proq zararli moddalar chiqariladi. Loyiha maqsadi esa shahar ko'chalarida jamoat transportiga ustuvorlik berish orqali tirbandliklarni kamaytirish, yo'lovchilar uchun qulay va xavfsiz sharoit yaratishga qaratilgan.

Yagona dizayn-kod

Markaziy avtobus yo'laklari hamda zamonaviy yo'l o'tkazgichni qurish ishlari may oylarida boshlanishi rejalashtirilgan. Qurilish jarayonlarining bari ekologik talablar asosida, inspektorlar nazorati ostida bajarilishi aytilyapti. Qurilish hududlaridagi daraxt va butalar belgilangan bo'sh maydonlarga, masalan, yaqinda Toshkent tumanida ochilgan Milliy dendrologiya bog'iga ko'chirib o'tqazilib, uch yil davomida parvarishlanadi. Yangi avtobus yo'laklari atroflarida esa qo'shimcha "yashil" hududlar tashkil etiladi.

Qurilish ishlari Toshkent shahri hokimligi tomonidan ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilayotgan yangi tizim — yagona dizayn-kod asosida bajariladi. Ma'lumotlarga ko'ra, dizayn-kod Toshkent shahrining me'moriy va vizual qiyofasini yanada tartibga solish, poytaxtda zamonaviy va estetik jihatdan yaxlit shahar muhitini yaratishga qaratilgan standartlar jamlanmasini o'zida aks ettiradi. Unda tasvii bezak, reklama elementlaridan tortib, yo'l infratuzilmasiga yagona standartlar ishlab chiqilgan. Endi ularni o'rnatishda belgilangan talablar, aniq me'yorlarga amal qilinadi. Bundan ko'zlangan maqsad poytaxtda vizual jihatdan tartibli, estetik va uyg'un shahar muhitini shakllantirishga qaratilgan aytilmoqda.

Yagona dizayn-kod piyodalar uchun ham qulay va xavfsiz muhit yaratishga xizmat qiladi. Gap shundaki, shahar bo'ylab piyodalar yo'laklari, yoritish tizimlari, ko'cha jibozlari, "yashil" hududlar va navigatsiya elementlarining bari aniq standartlar bilan tartibga solinadi. Bu poytaxtning tasvii qiyofasini yanada yaxshilash barobarida funksionallikni ta'minlaydi. Ya'ni imkoniyati cheklangan shaxslar, keksalar, bolali otanalar va barcha piyodalarning shahar bo'ylab harakatlanish qulayligi ortadi.

2026-yilda amalga oshiriladigan "BRT" loyihasi va ishga tushadigan yangi markaziy avtobus yo'laklari, ikki qavatli yo'l o'tkazgich shahar transport qiyofasini o'zgartirib, jamoat transporti jozibadorligini yanada oshirishga xizmat qiladi. Loyiha poytaxt yo'llarida tirbandliklarni kamaytirish, tezkor va xavfsiz harakatni ta'minlash, yo'l harakatining har bir ishtirokchisiga qulay sharoit yaratishga qaratilgan bilan shahar transport tizimida yangi davni boshlab berishi kutilyapti.

Iroda TOSHMATOVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri



Prezident qarorlari – hayotda va nazoratda

VODIL XO'JAG'ATZORLARI

Farg'ona tumani aholisi xo'jag'at (malina) yetishtirishda o'ziga xos tajribaga ega. Ayni kunda tumandagi 20 ga yaqin mahalla aholisi tomorqada malina yetishtirib keladi. Chunki bu rezavor tumanning tabiiy iqlim va yer sharoitiga mos bo'lib, yaxshi rivojlanadi. Ayniqsa, keyingi yillarda mahalliy navlardan tashqari Yevropa navlaridan ham eksportbop yuqori hosil olinyapti.

Prezidentimizning "Farg'ona" turistik-rekreasion zonasini tashkil etish choralar-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosi doirasida "Vodil" malina agroturizm klasterini tashkil etish borasida istiqbolli loyihalar amalga oshirilmoqda. "Sanoat" mahalla fuqarolar yig'ini hududida "Turon-Farg'ona bog'lari" MCHJ tashkil etilib, 5,5 gektar yerda yangi malinazorlar barpo etildi. Polshaning maravilla navli malina ko'chatlari mahalliy navlarga nisbatan serhosilligi, uzoq vaqt xususiyatini yo'qotmasligi, eksportbopligi bilan ajralib turadi. Rezavor ko'chatlarini suv bilan

uzlaksiz ta'minlash maqsadida quduq qazilib, 600 metr kub hajmli hovuz qurilib, zamonaviy tinchilab sug'orish tizimlari o'rnatildi. Hududda yengil konstruksiyali rezavor mevalar savdo rastasi, sayyohlar uchun qulay qo'ng'ohlar qurish, malinazorlar bo'ylab sayohat qilish borasida istiqbolli loyihalar amalga oshirilmoqda.

— Malinachilik mahallamizning drayveriga aylangan, — deydi mahalla bankiri Saidmurod Mo'minov. — Ayni kunda "Sanoat", "Tinchlik", "Novkent", "Beruniy" mahalla fuqarolar yig'inlaridagi aholi tomorqalarida malina



yetishtiriladi. Shu kunga qadar xo'jag'at yetishtirishni yo'lga qo'yish istagini bildirgan tashabbuskorlarga 200 million so'mdan ortiq imtiyozli kredit berildi. Bu nafaqat hosil yetishtirish, balki uni qayta ishlash, eksport qilish, agroturizm tarmoqlari faoliyatini kengaytirish orqali qo'shimcha ish o'rinlari ochish, aholi farovonligini oshirish imkoniyatini bermog'da.

Vodil qishlog'i o'ziga xos tarovati bilan ajralib turadi. So'lim tabiati, zilol suvi, musaffo havosi dilingizga huzur bag'ishlaydi. Tanangiz rohatlanadi, ruhingiz yengil tortadi, toza havodan to'yib-to'yib nafas olasiz. Ayniqsa,



SAYYOHLARNI CHORLAYDI

malina yig'im-terimi mavsumi bu maskanga yanada fayz-ur baraka olib kiradi. Deyarli har bir xonadonda darmondorlarga nihoyatda boy shifobaxsh ne'mat yetishtiriladi.

"Alpomish Xosiyatxon" bog'dorchilik xo'jaligiga tegishli 14 gektar yerda Italiyaning 12 navdagi malina ko'chatlari parvarishlanmoqda. Salqin havo va nam tuproqni xush ko'ruvchi ko'chatlar yaxshi tup olib, rivojlanayapti.

— Yangi navlar mahalliy iqlim sharoitiga mos, yuqori va sifatli hosil berishi bilan ajralib turadi, — deydi bog'dorchilik xo'jaligi rahbari Elyorbek Nishonov. — Mevasi yirik, qattiq. Bu

jihatlari hosilni uzoq vaqt saqlash va eksportga chiqarishda o'ziga xos qulaylik beradi. Dastlab 2000 tup yangi malina ko'chati olib kelganz. Bugun ular 10 ming tupdan oshdi. Har bir tupdan 3 kilogrammdan 5 kilogrammacha hosil terib olish mumkin. Issiqxonada malina yetishtirishni ham yo'lga qo'yganmiz. Bu innovatsion usul ekin maydonlaridan uch martaqacha hosil olish imkoniyatini bermog'da.

Sohaga ilm-fan yutuqlari, innovatsiya g'oyalari hamda xorijiy tajriba keng joriy etilishi natijasida tarmoqning investitsiyaviy jozibadorligi yildan yilga yuksalib bormog'da. Qizilo'rg'on massivida

300 gektardan ortiq samarasiz bog'lar o'mida yangi malinazorlar tashkil etildi.

"Sanoat" mahalla fuqarolar yig'inida umrguzaronlik qilayotgan Eldor Madaminov bahorgi yumushlar bilan band. O'n sotix tomorqaga ekilgan ko'chatlari baravj rivojlanayapti.

— Hosil mo'l va sifatli bo'lishida erta bahorda qilingan mehnatning o'ziga xos qulayligi beradi. Dastlab Eldorbek. — Ekinlar tagini yumshatish, mahalliy o'g'it bilan oziqlantirish, zararkunandalarga qarshi kurashish, sug'orish muhim ishlardan. Mahalla bankiri tavsiyasi bilan "Biznesim maqsadi" loyihasi bo'yicha 30 million so'm kredit olib, malina yetishtirishni yo'lga qo'ygandim. Natijasi yaxshi bo'lyapti. Mavsumda 100 million so'mgacha daromad o'laymiz. Vodilda malinachilik yo'nalishida agroturizm tarmoqlari tashkil qilinayotgani yangi loyihalarga undaydi. Chunki u nafaqat daromad manbai, balki mazasi, shifobaxsh xususiyatlari bilan ajralib turadi. Xo'jag'at mevasi immunitetni mustahkamlashda yordam beradi, keksayishni sekinlashtiradi, tanadagi ortiqcha yog'larni eritadi, ovqat hazm qilishni mo'tadillashiradi. Shamollash, saraton yuzaga kelishning oldini oladi, qondagi qand miqdorini nazorat qiladi.

Farg'ona viloyati o'simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi fitosanitar laboratoriyasi mutaxassislari esa sayyor mobil laboratoriyasi orqali malina bog'larda kuzatuv o'tkazmoqda. Shu yerning o'zida o'simliklardan namunalar olinib, tahlil qilinadi. Tomorqachilarga malinani zararkunandalardan himoya qilish hamda hosildorlikni oshirish borasida kerakli tavsiyalar berib borilyapti.

Rasuljon KAMOLOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri



www.yuz.uz

yuz_official

yuz.uz_news

yuz.uz_news

Yangicha yondashuv

YOSHLAR TARBIYASIDA MUHIM QADAM



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Risolat MADIYEVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Davlatimiz rahbarining 2026-yil 5-fevraldagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" dagi farmonida sohani ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, innovatsion maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini tashkil etish, bolalarning intellektual, ma'naviy-axloqiy, ijodiy, jismoniy va har tomonlama rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yinga asoslangan ta'lim joriy etilishi orqali intellektual rivojlanishga qaratilgan muhit yaratilayotgani bolalarning aqliy, emosional va ijtimoiy qobiliyati shakllanishida katta ahamiyatga ega. Bu orqali bola bilimni majburiy ravishda emas, balki qiziqish va tajriba asosida o'zlashtiradi.

Fan va matematika yo'nalishida maxsus o'yin zonalarini tashkil etilmoqda. Bolalar uchun mozaikalar, konstruktorlar, mantiqiy o'yinlar, robototexnika va ilk algoritmlash elementlari joriy qilinayapti. Interaktiv doska va raqamli ta'lim vositalari orqali o'tkaziladigan mashg'ulotlar bolalarda ma'lumot izlash, saralash, to'g'ri foydalanish kabi axborot madaniyatini shakllantiradi. Mustaqil qaror qabul qilish, vazifalarni bajarish, o'z xatolarini tahlil qilishni o'rgatadi.

— Joriy yilda Qoraqalpoq iston Respublikasi va Toshkent shahrida tashkil etiladigan "Yangi avlod" maktabgacha ta'lim tashkilotlari negizidagi Bolalarni rivojlantirish innovatsion markazi bazasida xuddi shunday zamonaviy o'yin zonalarini amaliyotga tatbiq etilishi ko'zda tutilmoqda, — deydi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti bosh mutaxassisi Sirojiddin Rahmonberdiyev. — Fan va matematika yo'nalishida maxsus tematik o'yingohlar tashkil qilinib, bolalar uchun mozaikalar, konstruktorlar, mantiqiy o'yinlar, robototexnika to'plamlari hamda ilk algoritmlash elementlari joriy etiladi. Shuningdek, interaktiv doska va raqamli ta'lim vositalari orqali mashg'ulotlar o'tkazish tizimi yo'lga qo'yiladi.

Bu maktabgacha ta'lim tizimini yangi sifat bosqichiga olib chiqish, o'yinga asoslangan ta'lim orqali bolalarning intellektual salohiyatini rivojlantirish maqsadini ko'zda tutadi.

O'yin zonalarini Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda sohaviy oliygo'har, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikda tashkil etilmoqda. Pedagoglar uchun maxsus metodik qo'llanmalar ishlab chiqilib, "Metodik mahorat kuni" va "Metodik mahorat soati" tadbirlari doirasida o'yinga asoslangan fan

hamda matematika mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha tajriba almashinuvi yo'lga qo'yilgan.

Mutaxassis fikricha, bu kabi maxsus o'yin zonalarini faqat bilim berish vositasi emas, balki bolada fanga qiziqishni erta shakllantiradigan muhit yaratadi. Yangicha yondashuvlar ularda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, muammoga yechim topish ko'nikmalari, tafakkur, diqqat, xotira rivojlanishiga ko'mak beradi.

Bolalarni milliy g'urur va vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashga har doim ustuvor vazifa sifatida e'tibor qaratiladi. Shu maqsadda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida davlat ramzlariga hurmat, milliy qadriyatlar, ota-onaga ehtirom, kattalarni hurmat qilish, do'stlik va hamjihatlik g'oyalarni singdirishga qaratilgan mashg'ulotlar o'tkazilmoqda.

"Mening vatanim — O'zbekiston" mavzusida suhbatlar, milliy bayramlarga bag'ishlangan

sahna ko'rinishlari, "Turon kichkintoylari" teatr jamoalari orqali xalq ertaklari asosida tashkil etilayotgan tarbiyaviy mashg'ulotlar, sahna ko'rinishlarida rollar ijro etish, musiqa asboblari bilan tanishish orqali ijodiy salohiyatini namoyon qiladi. Rasm chizish, musiqa, qo'shiq aytilish, raqs va sahnalashtirish mashg'ulotlari keng yo'lga qo'yiladi. Bu jarayon bolalarda tasavvur va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi.

Farmonda bolalarni tarbiyalash, rivojlantirish va ularga ta'lim berishni ijodiy munosabatlar orqali amalga oshirish maqsadida o'yinga asoslangan ta'limni joriy etish vazifasi ham keltirilgan. Shundan kelib chiqib, ayni paytda

MTIlarda ijod va san'at yo'nalishida tematik o'yingohlar tashkil etilmoqda. Bolalar o'z qo'llari bilan qo'g'irchoqlar yasash, turli mini futbol, gimnastika, estafeta o'yinlari, harakatli bilan tanishish orqali ijodiy salohiyatini namoyon qiladi. Rasm chizish, musiqa, qo'shiq aytilish, raqs va sahnalashtirish mashg'ulotlari keng yo'lga qo'yiladi. Bu jarayon bolalarda tasavvur va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi.

Hujjatda bolalarning yoshi va rivojlanish bosqichlariga mos ravishda ijod va san'at, fan va matematika, til va tasavvur, robototexnika va ilk algoritmlash bilan bir qatorda jismoniy faollik yo'nalishida ham tematik o'yingohlar ochish ko'zda tutilgan. Shu asosda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sport maydonchalari, harakatli o'yinlar uchun ochiq va yopiq zallar tashkil etilmoqda. Ertalabki badantariya, ochiq havoda sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlar bolalarning jismoniy rivojlanishiga xizmat qilishi, baquvvat, chiniquq va sog'lom bo'lib o'sishiga zamin yaratadi.

— Toshkent shahridagi 122-davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida maxsus jihozlangan sport zali, rezina qoplamali ochiq maydoncha, bolalar uchun xavfsiz mashq va harakatli o'yinlar maydoni bor, — deydi Sirojiddin Rahmonberdiyev. — Bu yerda har kuni ertalabki badantariya, haftalik sport soatlari va ochiq havoda sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlar o'tkaziladi.

Shuningdek, Toshkent shahridagi 204-davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida

"Sog'lom bola — sog'lom kelajak" shiori ostida jismoniy tarbiya dasturi amalga oshirilmoqda. Bog'chada bolalar uchun mini futbol, gimnastika, estafeta o'yinlari, harakatli mashqlar o'tkazilishi yo'lga qo'yilgan. Mashg'ulotlar bolalarning mushak, nafas olish tizimi va umumiy harakat faolligini oshiradi. Intizom, jamoada harakat qilish, o'z sog'lig'iga mas'uliyat bilan qarash ko'nikmalarini shakllantiradi. Bolalar harakat orqali o'z energiyasini g'ori sharfaydi, immuniteti mustahkamlanadi va maktab ta'limiga jismonan tayyor holda kirib boradi.

Ushbu maktabgacha ta'lim tashkilotlari tajribasi boshqa hududlarga ham tatbiq etilmoqda. Yangi sport maydonchalari barpo etilib, tarbiyachilar uchun jismoniy tarbiya bo'yicha maxsus metodik tavsiyalar ishlab chiqilyapti.

Farmonda simulyatsion vaziyatlar orqali bolalarda kasblarga qiziqish uyg'otish, ekologik madaniyatni shakllantirish kabi yo'nalishlar bo'yicha ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirish vazifasi keltirilgan.

— Bolalarni simulyatsion o'yinlar orqali kasblar bilan tanishtirish, ekologik tarbiya, ijtimoiy munosabatlarni o'rgatishga qaratilgan mashg'ulotlar yo'lga qo'yilyapti, — deydi Sirojiddin Rahmonberdiyev. — "Shifokor", "Oshxon", "Quruvchi" kabi rolli o'yinlar, tabiatni asrash mavzusidagi amaliy ishlar, jamoaviy o'yinlar bolalarni hamkorlikka va mas'uliyatga o'rgatadi. Bu yo'nalishda joriy

etilayotgan yondashuvlar ilg'or xorijiy tajribalar, xususan, Janubiy Koreya va Xitoy maktabgacha ta'lim tizimidagi innovatsion modellar asosida takomillashtirilayapti.

Mutaxassisning ta'kidlashicha, Janubiy Koreya tajribasida "hayotiy ko'nikmalar orqali ta'lim" tamoyili ustuvor hisoblanadi. U yerda bog'chalarda "mini city" — ya'ni kichik shaharcha shaklidagi o'yin muhitlari yaratilgan bo'lib, bolalar shifoxona, do'kon, oshxon, qurilish maydoni, politsiya bo'limi kabi simulyatsion hududlarda o'yin orqali jamiyat hayotini o'rganadi. Ushbu usul bolalarda kasblarga qiziqish, jamoat joyida o'zini tutish madaniyati va ijtimoiy mas'uliyat hissini shakllantiradi. O'zbekistonda ham ayrim maktabgacha ta'lim tashkilotlarida shu model asosida "Kasblar shaharchasi" uslubida tematik o'yin zonalarini tashkil etilyapti.

Xitoy tajribasida esa ekologik tarbiya va jamoaviy o'yinlar alohida ahamiyat kasb etadi. Bog'chalarda bolalar tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan amaliy mashg'ulotlarda ishtirok etadi. Gul ekish, chiqindilarni saralash, suvni tejash, daraxtlarga g'amxo'rlik qilish kabi faoliyatlar simulyatsion o'yinlar bilan uyg'unlashtiriladi. Masalan, "Ekologiya qo'riqchisi" o'yini orqali bolalar o'zini tabiat himoyachisi sifatida his qiladi. Bu tajriba asosida mamlakatimiz bog'chalarida "Tabiatni asraymiz" mavzusida suyuqlik-rolli mashg'ulotlar yo'lga qo'yilmoqda.

— Respublika bo'yicha 6917 ta davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining 30 ming 882 ta guruhida tarbiyalanuvchilarning qo'l mehnati buyumlari, chizmalari va tabiiy materiallardan tayyorlangan ijodiy ishlari asosida "Ekologik burchaklar" hamda 6588 ta davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida "Ekologik yo'lakchalar" tashkil etilgan, — deydi S. Rahmonberdiyev. — Ushbu yo'lakchalarda o'yin orqali bolalarning atrof-muhit bilan bevosita mulqotda bo'lish, o'simlik va hayvonot olamini kuzatish orqali ekologik tafakkurini rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.

2025-2026 o'quv yilidan boshlab "Ekologik burchaklar" va "Ekologik yo'lakchalar"dagi o'yin orqali mashg'ulotlar, kuzatuv ishlari va sayrlar davomida tarbiyalanuvchilarga O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan o'simlik va hayvonlar haqida dastlabki tushunchalar berish tizimli yo'lga qo'yildi.

"Tasviriy faoliyat" mashg'ulotlari jarayonida bolalar tomonidan muhofaza qilinadigan o'simlik va hayvonlarning rasmlarini chizish amaliyoti joriy etilib, bu orqali ularni tabiatni sevish, unga ehtiyorkonlarga munosabatda bo'lish va ekologik madaniyatni erta yoshdan egallashga yo'naltirish asosiy maqsad sifatida belgilangan.

Ushbu yondashuvning yana bir o'ziga xos jihati, ijtimoiy munosabatlarni o'yin orqali o'rgatishdir. Jamoaviy o'yinlarda bolalar navbat kutish, bir-biriga yordam berish, kelishuvga erishish, bahsni tinch yo'l bilan hal qilishni amalda o'rganadi. Bu esa ularning emosional intellekt va mulqot madaniyatini shakllantiradi.

Simulyatsion va rolli o'yinlar orqali ta'lim berish usuli Janubiy Koreya va Xitoy tajribasiga tayangan holda mahalliy sharoitga moslashtirilmoqda. Bu yondashuv bolani faqat bilimni emas, balki hayotga tayyor, jamoada ishlay oladigan, kasblarga qiziquvchan va tabiatga mas'uliyat bilan qaraydigan shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlari bola kelajagini belgilab, salohiyatini ochib beruvchi zamonaviy tarbiya va rivojlanish markazlariga aylangan. Bu esa yurtimiz kelajagi bo'lgan yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash yo'lida muhim qadamdir. Davlatimiz rahbarining yuqorida keltirilgan farmoni ushbu xayrli ishlarni yangi bosqichga ko'tarishi bilan ahamiyatli.

BIRDAMLIK, MEHNAT VA O'SISH UYG'UNLIGI

MAMLAKAT MIQYOSIDAGI ISLOHOTLAR MAHALLADA BOSHLANYAPTI



Mehr mehvari

Mahalla — yangi O'zbekiston poydevori. U qancha mustahkam bo'lsa, yurtimiz ham shunchalik barqaror rivojlanadi. Joriy yil ushbu yo'lda juda katta marralar belgilangan. Bu boradagi ishlar Navoiy viloyatida ham izchil davom etmoqda.

Karmana tumanidagi Talqoq mahallasida hozir 10 mingdan ortiq aholi yashaydi. Mahallada odamlar umumiy muammolarni birgalikda, maslahatlashib hal qiladi. Bu yerda "mahalla yettilligi" har bir masala bo'yicha jamoaviy qaror qabul qiladi. Mavjud muammolarga yechim topishda hamkorlikda harakat qiladi. Bu "mahalla yettilligi" va aholi o'rtasidagi o'zaro ishonch, birdamlikka zamin yaratmoqda.

Mahalla — katta ijtimoiy kuch. Undagi faollar, tajribali nuroniyalar jamoatchilik bilan birga har qanday muammoni hal etib, adashganlarni to'g'ri yo'lga solishga qodir. Bu tajriba Talqoq mahallasida ham samara bermog'da. Shuningdek, mahallada infratuzilmani yaxshilash, odamlarga yashash uchun qulay sharoit yaratish maqsadida hududdagi 7 ta ko'cha ko'rkanq yoyifaga keltirilib, namunaviy xonadonlarni ko'paytirish choralarini ko'rilmoqda.

— Mahallamiz infratuzilmasi yildan yilga yaxshilanib bormog'da, — deydi Talqoq mahallasi raisi Said Sharipov. — 2026-yilda yana 10 kilometr ichki ko'cha asfalt qilinishi rejalashtirilgan. Mahallamizdagi ta'lim maskanlari ham zamonaviy qiyofa kasb etgan. Yaqinda 120 o'rinni yangi maktabgacha ta'lim tashkiloti foydalanishga topshirildi. "Mahalla yettilligi" bilan hamjihat bo'lib, yangi ish o'rinlari yaratish istagida bo'lgan tadbirkorlarga yaqindan yordam beryapmiz. Ushbu mahallaga 2016-yildan buyon raislik qilib kelaman. O'sha vaqti mahallamizda bor-yo'g'i 19 tadbirkor bor edi. Hozir ularning soni 70 dan oshgan. Bu ham mahallamizda aholi bandligini ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda. Bundan tashqari, aholi chorva va issiqxonadan ham yaxshi daromad topmoqda. 2025-yilda 100 dan ortiq fuqaroga turli maqsadlar uchun kredit ajratilishiga ko'mak berildi. Mahallani rivojlantirish va jamiyatni

yuksaltirish yilida rejalashtirish ko'p. Mahalla tizimini yangi bosqichga olib chiqish uchun qator vazifalar belgilab berilgan. "Mahalla yettilligi" bilan ushbu vazifalar ijrosini ta'minlab, hududni yanada rivojlantirishni maqsad qilganmiz.

Talqoq mahallasining drayver tarmoqlari dehqonchilik, kulollik, chorvachilik hisoblanadi. Mahallaning Kulollar ko'chasidagi har ikki xonadonning birida hunarmandlar yashaydi. Uchqun Saidov ana shunday usta kulollarning uchinchi avlodi.

— Hunarli kishi hech qachon xor bo'lmaydi, — deydi Uchqun Saidov. — Kulollik bizga otameros. Otamning kasbini tanlab kam bo'lmadim. Tayyorlayotgan mahsulotlarimiz xaridorgir. Shogirdlikka kelib, hunar o'rganishni istaydigan yoshlarimiz bor. Ularga zarur ko'mak va tavsiyalar berib kelyapmiz.

Bugun mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish kambag'allikni qisqartirishning muhim sharti bo'lib ulgurdi. Eplagan ishlab chiqarishni yo'lga qo'yaypti, erinmagan esa yerdan rizq undiryapti. Karmana tumanida bu kabi namunali mahallalar ko'p. Arabxonon mahallasida ayni vaqtda 3 ming 680 kishi yashaydi. Mahallaning asosiy drayveri dehqonchilik va chorvachilikdir. Har bir xonadon, har bir oila bilan alohida reja asosida ishlar olib borilmoqda. Ularning daromadini oshirish uchun yetarli resurslar ajratilmoqda.



— Mahallamizning asosiy drayveri qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish, — deydi Arabxonon mahallasi raisi Azamat Bo'ronov. — Ayni vaqtda 100 ga yaqin xonadonda issiqxonon bor. Ularning 28 tasiga kartoshka ekilgan. Tez orada mahsulot bozorga chiqariladi. Qolganlarida esa pomidor, bodring va bulg'or qalampiri yetishtirish reja qilingan. Mahallamiz infratuzilmasi ham tubdan o'zgaradi.

"Tashabbusli budget" da g'olib bo'ldik. Natijada ichki ko'chalarimiz to'liq asfalt qilindi va tungi chiroqlar o'rnatildi. Har bir xonadonga toza ichimlik suv kirib borgan. "Tashabbusli budget" da yana bir loyihamiz g'olib topilib, mahallamizdagi maktab yonida usti yopiq kichik futbol maydoni qurildi. Bundan tashqari, mahallamizda ikkita zamonaviy vorkaut

maydonchasi bor. Aholi, ayniqsa, yoshlar bo'sh vaqtlarida sport bilan muntazam shug'ullanib kelmog'da. Ayni vaqtda mahallamiz jinoyatchilikdan xoli hududga aylangan.

Arabxonon mahallasida tomorqasidan mo'mayga daromad olayotgan oilalar ko'p. Xonadonlarga borsangiz, issiqxonada kartoshka, limon, nihol, ko'kat yetishtirilayotganini ko'rasiz. Ahmad Boboqulov nafaqada bo'lsa-da, hali ham ketmonni ko'lidan qo'ymaydi. Dehqon bobo mehnati bilan kaftdek tomorqasini yiliga uch-to'rt hosil beradigan daromad manbaiga aylantirdi. Gullola Ortigova esa mahallada namunali tomorqachi sifatida nom qozongan. Bu kabi mehnat ortidan farovon kun kechirayotganlar anchagina. Muhimi, aholi yaratib berilayotgan imkoniyatlardan samarali foydalanmog'da.

Navbahor tumanida 42 ta mahalla bor. Hududlarda har bir ko'chani obod qilish, xonadon va tomorqa madaniyatini rivojlantirish, oilalarni mustahkamlash, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishga qaratilgan ishlar tizimli ravishda bajarilmoqda. Tumanidagi Beshrabot mahallasi ham so'nggi yillardan obodlik, bunyodkorlik va rivojlanishga yuz tutdi. Hozir bu mahallada 3 ming 756 kishi yashaydi. Hududning asosiy drayveri to'qimachilik, chorvachilik, dehqonchilik hisoblanadi.

Mahalla rivoji yo'lidagi islohotlarga faol nuroniyalar keng jalb etilgan. Ular ishtirokida yoshlarning bo'sh vaqtini samarali tashkil etish, ma'naviyatini yuksaltirish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan tadbirlar o'tkazib kelinaypti.

Hozir mahalla faqatgina yashash hududi emas, balki jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy barqarorlik va aholi farovonligini ta'minlashda hal qiluvchi bo'lg'in. Beshrabot mahallasida yangi tashkil etilgan loyihalar va zamonaviy infratuzilma ham buni tasdiqlaydi.

Yo'llarni ta'mirlash, ichimlik suv tarmoqlarini yangilash, bog'cha va maktablarni obod qilish kabi ishlar yurtdoshlarimizga yuqori kayfiyat, shijoat baxsh etyapti. — Ulkan bunyodkorlik natijasida qishloqlarda ham shaharlardagi kabi infratuzilma yaratilyapti, — deydi O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi Norpo'lat Qosimov. — Ko'p qavatli uylar qurilmog'da. Yurtimizdagi barcha mahalla shunday so'lim qiyofa kasb etyotgani va bunyodkorlik markaziga aylanganini his qilib turibmiz.

Bugun mahalla tizimi orqali davlat aholiga yaqinlashmog'da. Muammolar manzilli hal etilyapti. Joriy yil uchun belgilangan vazifalar ham mahallalarda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu xalqimiz farovonligining asosiy kafolati.

G'olib ABDUSALOMOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Amir Temur tavalludining 690 yilligi

EHTIROM

2026-yil 7-aprel, 67-son



BUYUK TEMURBEK



Oqsaroydan peshvoz chiqib kelgandek,
Tutib matonatli qomatin tog'dek.
Tinchligi abadiy elim, degandek,
Olamga tik boqib turar Temurbek.

Yeti iqlim bilar Sohibqironni,
Jahongir beshigi buyuk Turonni.
Qutlab yangi davr-u yangi zamonni,
Olamga tik boqib turar Temurbek.

Ona yurt kundan kun yuksalib borar,
Dunyo o'zbeklarni bugun tan olar.
Buyuk tamaddundan dunyo uyg'onar,
Olamga tik boqib turar Temurbek.

Vatan uzra porlar millat quyoshi,
El obod, bog'larda ranglar taloshi.
Davlat – uch ming yillik tarix tengdoshi,
Olamga tik boqib turar Temurbek.

Abdulla AYIZOV,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

KO'HNA KESH – DUNYO E'TIBORIDA Sohibqironning daxmasi haqida nimalarni bilamiz?

Bu voqea ancha yil bo'lgan. Ko'hna Keshning keksa avlod vakillari yaxshi eslaydi: sobiq tuzum davrida tarixiy obidalar e'tibor ancha susayib ketgan edi. Natijada XX asr boshlaridan Shahrisabzdagi Oqsaroy majmuasi hududini mahalliy aholi to'liq o'zlashtirishga kirishdi. Odamlar xom g'isht va paxsadan uy-joylar qurib oldi.

O'tgan asrning 50-yillariga kelib, yer ostida qolib ketgan tarixiy obyekt tasodifiy bir voqea tufayli ochilib qoladi. Bunga bir qizaloq sababchi bo'lgan. Aytishlaricha, Oqsaroy yaqinida uy-joy qurib yashayotgan mahalliy aholi vakillaridan birining qizchasi hovlida o'ynab yurganida yerning bir qismi o'pirilib, u pastlikka tushib ketadi. Kutilmagan holatdan ota-onasi shoshib qoladi. Tezkor sa'y-harakatlar tufayli odamlar to'planib, qizchani qutqarib oladi. Lekin shu jarayonda o'pirilib tushgan joy oddiy chuqurlik emasligini yig'ilganlar tushunib qoladi. Ko'rinishidan inshootga o'xshash bu joy ancha keng ekani ma'lum bo'ladi. Sarosimaga tushib qolgan xonadon egasi mahalladoshlarining maslahati bilan mutaxassislariga xabar berish harakatiga tushadi. U o'sha paytda yaqindagina akademik etib saylangan Yahyo G'ulomovga murojaat qiladi.

Shu yilning o'zida akademik Yahyo G'ulomov boshchiligidagi arxeologlar bu yerda o'rganish olib boradi. O'tkazilgan tekshiruvlar natijasida bu inshoot bir paytlar ko'milib ketgan yer osti daxmasi ekanini aniqlanadi. Ma'lumotlarga ko'ra, o'z davrida Shahrisabzda bo'lgan Ispaniya elchisi Klavixoning esdaliklarida ham yozib qoldirilgan ushbu inshoot Amir Temur o'zi dafn etilishi uchun qurdirgan yer osti daxmasi ekanini ma'lum bo'ladi.

Daxma deyarli to'rtburchak shaklda bo'lib, o'lchami 6,4x6,1 metr. Sag'ananing sathi, devorlari va bostirmasi pardozlangan, marmarsimon ohaktosh bilan qoplangan. Shifti esa chodirsimon gumbaz ko'rinishida qurilgan bo'lib, yuqori qismi naqshinkor kvadrat shaklida bunyod etilgan. Sag'ananing markazida to'g'ri to'rtburchak shaklidagi, balandligi 0,73 metr, bo'yi 2,5 metr, eni 1,4 metr o'lchamdagi tosh tobt joylashgan. Uning ustiga esa 11 santimetr qalinlikdagi, xiyalagina og'ir marmar plita qopqoq o'rnatilgan. Sag'ana bilan tanishish jarayonida uning sirtida, ravoqlari hoshiyasida va taxmonlarda suls xatining turli usullarida bitilgan Qur'on oyatlarini hamda duolarga ko'zingiz tushadi.

Sag'anani mukammal tadqiq qilgan qadimshunoslar fikricha, Amir Temurning ushbu maqbarasi me'moriy jihati va ichki bezaklari bo'yicha Markaziy Osiyoda shu turdagi eng nodir va yirik obidalar, qolaversa, musulmon Sharqidagi eng hashamdor daxmalar qatoridan joy oladi.

Manbalarga ko'ra, 1980-yildan boshlab xalqaro sayyohlik markazlari qatoriga qo'shilgan Shahrisabzga dunyoning turli joylaridan sayyohlar kela boshlagan. Shunday bo'lsa-da, turistlar tomosha qilishi zarur bo'lgan tarixiy obidalar ro'yxatida Amir Temur sag'anasi yo'q edi. Boisi, hatto yozning chillasida ham uzoq yillar daxma xazonga to'lib yotardi. Biror kishining bu yerga kirishga yuragi dosh bermasdi. Daxma, umuman olganda, e'tiborsiz holatda saqlab kelingan.

Oradan yillar o'tib, mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, daxmani tozalash ishlari boshlandi. Jumladan, Sohibqiron tavalludining 660 yilligini nishonlashga

tayyorgarlik ko'rish jarayonida qadimgi Keshdagi boshqa me'moriy obidalar qatorida Amir Temur daxmasi ham ta'mirdan chiqarildi. Zax suvni chiqarib yuborish uchun quvurlar o'tkazildi. Mehmonlar bu joyni tomosha qilishi uchun zarur choralar ko'rildi.

Nega Keshda emas?

Tarixchilarning yozishicha, o'sha davrda Amir Temur Keshdagi me'mor va muhandislarni chaqirtirib, o'g'li Jahongir Mirzo maqbarasidan o'ttiz-qirq qadam narida o'zi uchun mo'ljallangan maqbara loyihasini tayyorlashni buyurgan. Bu borada ko'rsatma va maslahatlar bergan. Loyiha tayyor bo'lgach, ko'zdan kechirgan Sohibqiron unga bir oz o'zgartirishlar kiritib,



maqbara qurilishini darhol boshlashga farmon beradi. Shu tariqa qurilish ishlari 1394-yilda boshlanadi.

Sarkarda har safar harbiy yurishdan qaytishda, albatta, Shahrisabzga kirib,

Oqsaroy yaqinida joylashgan Dorut-tilovat majmuasi saroyning shundoqqina ro'parasidan ko'rinib turadi. Majmuadan Ko'kgumbaz masjidi, Shayx Shamsiddin Kulol maqbarasi hamda Gumbazi Sayidon maqbaralari o'rin olgan.

maqbaraning qurilish jarayonidan xabardor bo'lib turgan. Ammo ko'rkamlikda shahardagi boshqa mahobatli binolardan qolishmaydigan bu maqbara chala qolib ketadi. Buning ustiga Xitoyga yurish qilgan hukmdorning to'satdan tobi qochib, vafot etadi. Uning jasadini hech kimga bildirmay, shoshilinch Samarqandga olib kelishadi.

dovonini esa qalin qor bosib qolgandi. Bunday sharoitda Sohibqironning jasadi solingan tobtuni Shahrisabzga olib kelish uchun yana bir-ikki kun zarur bo'lardi. Islom shariati esa mayitni tezroq qabrga qo'yishni taqozo qiladi. Bundan tashqari, Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishicha, dushmanlar xabar topib qolmasligi uchun sohibqironning vafoti qattiq sir tutilgan. Izg'irin qish pallasida Amir Temurning jasadini shuncha uzoq yo'lidan Samarqandga olib kelish va dafn qilish bilan bog'liq barcha ish o'ta maxfiy bajarilganining sababi ham shunda bo'lsa, ajab emas.

Yana bir jihati, Samarqand Amir Temur asos solgan ulkan saltanat poytaxti edi. Buyuk sarkarda poytaxtda bir-biridan chiroyli binolar qurdirib, go'zal bog'lar barpo etgan. Samarqandni dunyoning eng go'zal va obod shaharlaridan biriga aylantirish uchun ko'p kuch-g'ayrat sarflagan. Shu bois, Amir Temurning Samarqandda dafn etilishi shaharning jahonaro nufuzi va obro'-e'tibori yanada oshishiga ham xizmat qilardi.

Ko'rkam qiyofaga kirayotgan kent

Saroyning qurilishi 1380-yilning bahorida boshlanib, 1404-yilga qadar davom etgan. 1404-yili Shahrisabzda bo'lgan ispan elchisi Klavixov Oqsaroyni tomosha qilar ekan, o'sha vaqtda ham binoning ichki qismida bezash ishlari bajarilayotganini kundaliklarida qayd etgan. Uning ma'lumotlariga ko'ra, Oqsaroy balandligi va kattaligi jihatidan o'sha davrda yagona bo'lgan. Portallarining balandligi 71, kengligi esa 125x250 metr (ya'ni umumiy maydoni 4 gektar)ni tashkil etgan.

Saroyda barcha shart-sharoit, xususan, mehmonxona, qabulxona, kanizkalar turarjoyi, masjidlar, mehmonlar uchun maxsus xonalar va ayvonlar bo'lgan. Xonalarning bezaklari bir-biridan ajralib turgani hamda saroyning ichki qismida hovuzlar bo'lgani haqida ham ispan sayyohi yozib qoldirgan. Ichki imoratlar ikki qavatdan iborat, 1000 ga yaqin xonasi bo'lgan. Hozir esa binoning faqat kirish qismi, ya'ni portallari saqlanib qolgan. Ularning ayni paytdagi balandligi 38 metr. Ravog'i eni esa 22,5 metr bo'lib, mutaxassislar fikricha, bu ko'rsatkich bo'yicha Markaziy Osiyoda yagona. Portallar o'z davrida faqat g'ishtlar yordamida arka orqali tutashtan bo'lib, yuqori qismi bundan 200 yil muqaddam buzilib ketgani aytiladi. Qiziqarli jihati shundaki, ustalar mahorati tufayli binoning qurilish jarayonida biror

joyda taxta, yog'och yoki temirdan umuman foydalanilmagan. Saroyning kirish qismi o'sha vaqtdagi poytaxt Samarqandga qarab qurilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, sohibqiron saroy qurilishida me'morlik borasidagi mahoratini ham namoyon etgan.

Saroydagi bizgacha saqlanib qolgan mozaikalar o'z tarovatini yo'qotmay, asl holatini saqlab kelmoqda. Bino devorlaridagi naqshlar xilma-xil bo'lib, ular orasida Qur'on oyatlarini, hadislar, Amir Temurning hikmatli so'zlari hamda o'sha davrda ishlagan usta-hunarmandlarning ismlari yozib qoldirilgan. Xususan, portallarning minora qismidagi ikki metr joyda arabcha so'zlar bitilgan bo'lib, u "Sulton — Allohning yerdagi soyasi (elchisi)" degan mazmuni aks ettiradi. Shuningdek, peshtoqda Sohibqironning "Qudratimiza shubha qilsangiz, biz qurgan imoratlariga boqing" kabi so'zlari naqshlangan.

Manbalarga ko'ra, Oqsaroy qurilishida Xorazm, Eron, Ozarbayjon hamda Hindistonan kelgan ustalar qatnashgan. Inshootning bosh me'mori eronlik Muhammad Yusuf Tabriziy bo'lgan. Oqsaroy asosan Amir Temurning yozgi qarorgohi hisoblangan. O'sha vaqtda saroyga Taxtqoracha dovonidan sopol quvurlar orqali suv keltirilgan. Quvurlar orqali muntazam oqib turgan zilol suv saroy hududining obod va yashil makonga aylinishida muhim o'rin tutgan.

Ovoz kuchaytirgich o'sha vaqtda ham bo'lgan

Oqsaroy yaqinida joylashgan Dorut-tilovat majmuasi saroyning shundoqqina ro'parasidan ko'rinib turadi. Majmuadan Ko'kgumbaz masjidi, Shayx Shamsiddin Kulol maqbarasi hamda Gumbazi Sayidon maqbaralari o'rin olgan.

Ushbu majmuada XIV asrning oxiri va XV asrning birinchi yarmida bunyod etilgan. "Dorut-tilovat" — Qur'on tilovat qilinadigan joy ma'nosini anglatadi. Ma'lum bo'lishicha, o'z davrda bu yerda qorillar muntazam Qur'on oyatlarini tilovat qilgan.

Ko'kgumbaz masjidini yetuk olim hamda davlat arbobi Mirzo Ulug'bek 1434-1435-yillarda qurdirgan. U masjidni otasi Shohrux Mirzo nomidan bobosi Amir Temur sharafiga bunyod ettirgan. Masjid peshtoqning ravog'i va ichkarisida ularning nomi hamda masjidning qurilgan vaqti yozilgan. Shuningdek, ravodga bino yerdagi maqbarasi ekanini, ya'ni har juma kuni bu yerda jamoat namozi o'qilishi ta'kidlangan. Masjid ikki gumbazli bo'lib, ostki va ustki gumbazlar oraliq o'ynatib tashkil etadi. Tashqi gumbaz doirasidagi oddiy sopol g'ishtlar pastidan ustigacha sirkor moviy, ko'k va oq tus berilib, Qur'on oyatlarini yozilgan parchalar saqlanib qolgan. Peshtoqning old tomonida ham geometrik serjilo bezaklar ko'p ishlatilgan, ularda ayrim so'zlar mohirona bitilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, gumbazning ikki qavatli ichkaridagi ovozi aks sado orqali kuchaytirib berish vazifasini o'tagan. Ya'ni imomning ovozi baland ko'tarilib,

tashqaridagi jamoatga ham eshitilishi inobatga olingan. Bundan ko'rinib turibdiki, ajdodlarimiz o'sha paytdayoq hech qanday elektr tokisiz ishlaydigan ovoz kuchaytirgichni o'ylab topgan.

Gumbazi Sayidon maqbarasini ham 1434-1435-yillarda Mirzo Ulug'bek qurdirgan. Uning ikkinchi nomi "Avlodi muborak" deb ataladi. Maqbarada termizlik sayyidlarning qabrtoshlari mavjud. Sohibqiron va temuriylar davrida yashab o'tgan termizlik sayyidlarning yirik vakili Abulmaoliy bo'lgan. Kesh shahrida yashagan olim mahalliy xalq orasida katta obro'-e'tiborga sazovor bo'lgan. Shuningdek, o'sha vaqtda sayyidlarning ko'piga "amir" unvoni berilgan. Bu atama islom dini ustakamlovchi rahbar degan ma'noni ham anglatgan.

Shayx Shamsiddin Kulol maqbarasi XIV asr oxirida qurilgan. Shayx Shamsiddin Kulol Amir Temurning hamda otasi Tarag'ay Bahodirning ustozlari bo'lgan. U 1370-yili vafot etgan. Manbalarga ko'ra, Sohibqironning barcha muvaffaqiyati bevosita shayxning duolari bilan bog'liq. Shu sababli ham Amir Temur Shayx Shamsiddin Kulol qabri uzra maqbara qurdirish haqida farmon bergan. Ushbu maqbara Ko'kgumbaz masjidining sharqiy tomonida joylashgan. Shuningdek, Amir Temur 1360-yilda vafot etgan otasi Tarag'ay Bahodirning jasadini uning vasiyatiga binoan, 1374-yilda ko'chirib keltirib, shayxning poyiga dafn ettirgan.

Oqsaroy majmuasi qurilishi davrida bunyod etilgan Dorus-saodat me'moriy obidasi ham shu hududda qad rostlagan. Binoning yuqori qismi saroy oldidan ham yaqqol ko'rinib turadi. Manbalarda keltirilishicha, uning qurilishi 1379-yili boshlangan. Obidani tiklashda mahalliy ustalar bilan birga Xorazmdan keltirilgan tajribali me'morlar ham ishtirok etgan. Ma'lumotlarga ko'ra, Sohibqironning 1376-yili erta olamdan o'tgan sevikli o'g'li Jahongir Mirzoning qabri ham shu majmuaga ko'chirib kelingan. Shuningdek, keyinchalik yana bir o'g'li Umarshayxning jasadi ham shu yerga keltirilib, dafn etilgan.

Binoning yuqori qismi Oqsaroydagidek peshtoqliq qilib qurilgan bo'lib, har bir asosida maqbaralar joylashgan. Markaziy peshtoq orqali mo'jzagina hovliga kirilgan. Uning qarama-qarshida, markaziy o'q bo'yab qachonlardir baland gumbazli maqbara bo'lgan. Hozir esa uning faqat daxmasiga saqlanib qolgan. Arxeologik qazishmalar natijasida uning ikki yonida keng xonalar bo'lgani aniqlangan. Ulardan birining ostidan yana bir daxma topilgan bo'lib, ustida ham maqbara bo'lgan. Keyingi qazishmalar hovli maqbara va xonalarni o'zaro bog'lovchi vazifasini bajarganini ko'rsatdi.

Yurtimiz mustaqillikka erishgach, Oqsaroy majmuasining qaddi va qadri tiklandi. Majmuaga davlat miqyosida katta e'tibor qaratladi. U yana obod va go'zal maskanaga aylantirildi. Hududdagi barcha madaniy meros obyektlari tiklanib, munosib sayqal berildi.

Akbar RAHMONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriq qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-446.

Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Sardor Tolliboyev
Musahhib: Akbar Qarshiyev
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy